



O'zbekiston Respublikasi
Ichki ishlar vazirligi nashri

Vatanga va xalqqa sadoqat bilan xizmat qilish – oliy burchimiz!

2023-yil

1-iyun
payshanba

№ 22 (4612)

Postda Ha nocty

Gazeta 1930-yil 12-maydan chiqa boshlagan / Web-site: www.postda.uz / E-mail: info@postda.uz

▼ Yangi O'zbekiston – yangi ichki ishlar organlari

QO'SHALOQ TUHFA



Bugun yurtimizda «Inson qadri uchun» tamoyili asosida amalga oshirilayotgan bunyodkorlik ishlari dunyo jamoatchiligi e'tirofiga sazovor bo'lmoqda. O'z navbatida, bu fuqarolar va jamiyat hayotida yaqqol ko'zga tashlanmoqda. Boshqa sohalarda bo'lgani kabi, ichki ishlar organlarida ham bu borada ibratga molik ishlar amalga oshirilmoqda.

Yaqinda Qashqadaryo viloyati Kitob tumanining tog'li va bahavo hududida viloyat IIB Tibbiyot bo'limiga qarashli 60 o'rinli «Mingchinor» gospitali qurilib, foydalanishga topshirildi.



2



▼ Yangi O'zbekiston – yangi ichki ishlar organlari

QO'SHALOQ TUHFA



(Davomi. Boshlanishi 1-betda.)

Shu munosabat bilan tashkil etilgan tantanali tadbirda voha huquq-tartibot organlari rahbarlari, soha faxriylari, keng jamoatchilik vakillari jam bo'ldi. Ramziy ochilish marosimidan so'ng tadbir ishtirokchilari viloyat ichki ishlar organlari xodimlari, faxriylar va ularning oila a'zolariga xizmat ko'rsatuvchi gospitalda davolanuvchilar uchun yaratilgan shart-sharoitlar bilan yaqindan tanishdilar. 1 ta uch qavatli, 3 ta ikki qavatli, 4 ta bir qavatli binolarda joylashgan muolaja, fizioterapiya bo'limlari, davolash va jismoniy mashq xonalar, fitobar, oshxona hamda sport zali zamonaviy sharoitlarga ega ekani bilan barchada iliq taassurot qoldirdi.

– Umumiy yer maydoni 1980 metr kvadrat bo'lgan «Mingchinor» gospitali Ichki ishlar vazirligi va mahalliy budjetdan ajratilgan 9 milliard 954 million so'm mablag' hisobiga bunyod etildi, – deydi IIV Tibbiyot boshqarmasi boshlig'i,

podpolkovnik Shuhrat Nishonov. – Mazkur tibbiy markaz jahon standartlariga to'laqonli javob beruvchi darsonval, amplipuls, elektrofarez, UVCH, ultratovush, magnitoterapiya, tubus-kvars uskunalari, laboratoriya asbob-uskunalari bilan jihozlangan bo'lib, nafas olish, oshqozon-ichak, endokrin, asab tizimi, surunkali nevrologik kasalliklarni davolashga ixtisoslashgan.



Gospital kelgusida ichki ishlar organlari xodimlaridan tashqari soha faxriylari, ularning oila a'zolarining sog'lig'ini tiklash yo'lida samarali xizmat qiladi. Bunday mas'uliyatli vazifani uddalash uchun kuch va imkoniyatlar yetarli.

Shu kunning ikkinchi yarimida Shahrizabz tumani IIB-ning yangi ma'muriy binosi ham foydalanishga topshirildi.

Ikki qavatli muhtasham binoda xizmat xonalar, sport

zali, kutubxona, advokatlar uchun xonalar, sayyor sudlarni o'tkazish uchun sud zali o'ringan. Bundan tashqari, bu yerda tuman IIB migratsiya va fuqarolikni rasmiylashtirish hamda boshqa bo'limlar xodimlari uchun ham barcha qulayliklarga ega keng va yorug' xonalar ajratilgan.

Ichki ishlar bo'limining yangi binosida yaratilgan qulay sharoitlar jamoatchilik tuzilmalari bilan hamkorlikni



yanada mustahkamlashga, huquqbuzarliklarning barvaqt oldini olishga, aholi tinchligi va osoyishtaligini ishonchli ta'minlashga xizmat qilishiga, bunday g'amxo'rlikka javoban xodimlar yanada kuch-g'ayrat bilan faoliyat ko'rsatishiga shubha yo'q.

Tantanali marosimlarda Ichki ishlar vaziri o'rinbosari, general-mayor Azizbek Ikramov va viloyat hokimi Murodjon Azimov ishtirok etdi.

Sodiq RAHIMOV,
«Postda» muxbiri.

Qashqadaryo viloyati.





Халқаро анжуман

СОҲА ТАКОМИЛИ ЙЎЛИДА



СЎЗ АНЖУМАН ИШТИРОКЧИЛАРИГА



Сергей ЕВМЕНЕНКО, Беларусь Республикаси Давлат суд экспертизалари қўмитаси раисининг ўринбосари, адлия генерал-майори:

– Бугун биз ҳамма нарса тез ривожланаётган замонда яшаймиз. Бундай шароитда ҳар бир мамлакат ўз ҳолича эмас, балки ҳамкорликда иш олиб бориши керак. Биз, экспертлар соҳадаги мавжуд муаммоларни кўриб чиқиш ва уларга биргаликда ечим топишга тайёрмиз. Ўйлайманки, конференцияда муҳокама қилинган масалалар соҳа ривожига ўз самарасини беради.



Мустафа АВЖИ, Туркиянинг Ўзбекистондаги элчихонаси Ички ишлар бўйича маслаҳатчиси, жандармерия полковниги:

– Самарқанд шаҳрида жамоат тартибини сақлаш бўйича ишлар жуда яхши амалга оширилаётганлигига бевосита гувоҳ бўлдик. Тарихий обидалар, манзиллар ва кўчаларга камералар ўрнатилгани ва уларнинг марказдан кузатилиши турли кўнгилсиз воқеаларнинг олдини олишга хизмат қилади. Шунингдек, ходимларнинг ҳодиса жойидан далиллар тўплаш жараёнларини ҳам кузатдик. Далиллар тўплаш, уларни баҳолаш ва лабораторияда ишлаш мутахассисдан алоҳида маҳорат талаб қилади. Бу борада улар етук билимга эга эканлиги кўриниб турибди. Келгусида ана шу тажрибалар алмашинуви мамлакатлар тизимида хизмат қилади.

Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2022 йил 8 февралдаги «Ички ишлар органларининг эксперт-криминалистика фаолиятини замонавий илм-фан ютуқларини кенг жорий этган ҳолда янада такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида»ги қарори ҳамда Ички ишлар вазирининг 2023 йил 2 майдаги 118-сонли фармойишига мувофиқ, жорий йилнинг 26–27 май кунлари ИИБ Академияси ҳамда Самарқанд шаҳрида «Эксперт-криминалистика фаолияти муаммолар, истиқболлар ва инновациялар» мавзусида халқаро илмий-амалий анжуман бўлиб ўтди.

Анжуманда БМТнинг Гиёҳванд моддалар ва жиноятчиликка қарши курашиш бошқармасининг Марказий Осиёдаги минтақавий ваколатхонаси, Саудия Арабистони подшоҳлиги, Бирлашган Араб Амирликлари, Беларусь, Германия, Грузия, Италия, Корея, Озарбайжон, Россия, Тожикистон, Франция, Хитой, Қирғизистон, Қозоғистон, Ҳиндистон давлатларининг эксперт-криминалистика соҳаси раҳбарлари ва полиция академияларининг криминалистик экспертиза кафедраси бошлиқлари, шунингдек, республикамиз суд-экспертиза соҳасида фаолият олиб бораётган муассаса ва ташкилотлар вакиллари ҳамда Ички ишлар вазирлиги раҳбарияти иштирок этди.

ИИБ Академияси бошлиғи, полковник Р. Хатамов суд экспертизаси фаолиятининг долзарб муаммолари, уни инновацион технологиялар асосида янада ривожлантириш истиқболлари учун мутахассисларнинг интеллектуал салоҳиятини ошириш, шунингдек, суд экспертизасининг асосий тамойилларини таъминлайдиган янги авлод кадрларини тайёрлаш масалалари ҳақида тўхталди.

Анжуманда сўзга чиққан Ўзбекистон Республикаси Ички ишлар вазирининг ахборот технологиялари бўйича ўринбосари, полковник Н. Тураходжаев ўз нутқида суд экспертлари ишида ахборот технологияларидан самарали фойдаланиш зарурлигини айтиб ўтди. Далилларни тўплаш, қайд этиш ва ўрганиш жуда мураккаб жараёнлиги, турли бўлинмалар томонидан содир этилган ҳолатлар бўйича

ашёвий далиллар тўпланиши, уларнинг марказлаштирилган қайдани юритиш кейинги таҳлил қилиш учун бир қатор қўшимча имкониятларни тақдим этиши мумкинлигини таъкидлади.

Ўзбекистон Республикаси Ички ишлар вазирининг ўринбосари, полковник Я. Абдулхақов эса «Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси тўғрисида»ги қонуннинг 28-моддасига мувофиқ, «агар шахснинг айбига иқрор бўлиши унга қарши ягона далил бўлса, уни айбдор деб топиш ёки жазолаш мумкин эмаслиги», бу қоида бизга шахснинг айбини исботлашда бошқа далиллар, жумладан, ашёвий далилларнинг мавжудлиги мажбурий эканлигини бевосита билдириши, шундай қилиб, ашёвий далилларни тўплаш жараёни шахснинг айби ёки айбсизлигини аниқлаш ва адолатли жазо тайинлаш, жиноятнинг фош этилишига бевосита таъсир қилиши ҳақида гапирди.

Ишчан руҳда ўтган конференцияда эксперт-криминалистика соҳаси олдида турган муаммолар ва уларнинг ечимлари юзасидан атрофлича фикр алмашилди. Беларусь Республикаси Давлат суд экспертизалари қўмитаси раисининг ўринбосари, адлия генерал-майори С. Евмененко, Қозоғистон Республикаси ИИБ М.Букенбаев номидаги Актюбе юридик университети бошлиғи Н. Мухаметқалиев, Россия Федерацияси ИИБ Эксперт-криминалистика маркази бошлиғи В.Казмин (онлайн тарзда), шунингдек, БМТнинг Гиёҳванд моддалар ва жиноятчиликка қарши курашиш бошқармаси (UNODC)нинг Марказий Осиёдаги минтақавий ваколатхонаси, Қозоғистон, Қирғизистон, Россия, Ҳиндистон, Озарбайжон, Тожикистон давлатлари вакиллари чикишлари тингланди.

Эътиборлиси, анжуманда иштирок этган соҳа мутахассислари томонидан Ўзбекистонда криминалистикага замонавий ёндашувлар ва илғор ютуқлар жорий қилинганлиги алоҳида эътироф этилди. Хусусан, суд-ҳуқуқ тизимида олиб борилган либерал ислохотлар натижасида мамлакатимизда процессуал ишлар доирасида ашёвий далиллар тадқиқотига эътибор кучайганлиги, суд-тергов ишларида илмий асосланган исботлаш механизмлари такомиллаштирилганлиги, марказлашган криминалистик ахборот-қидирув тизимлари янги босқичга олиб чиқилганлиги, махсус крими-

налистик техник воситалар халқаро стандартлар асосида модернизация қилинганлигига эътибор қаратишди. Айниқса, шахснинг биометрик маълумотлари – қўл излари, юз қиёфаси, кўз қорачиғи, овози, ДНК спектри ва бошқа белгилари асосида марказлашган маълумотлар базаларининг юритилиши борасида ишлар соҳа самарадорлигини кескин оширишда муҳим эканлиги таъкидланди.

Конференция доирасида иштирокчилар ИИБ Академиясининг криминалистик экспертизалар кафедрасида яратилган замонавий лабораториялар, криминалистик усул-воситалар, сунъий интеллект дастурлари, ҳаракатдаги криминалистика лабораториялари, учувчисиз учиш қурилмалари ва уларнинг имкониятлари, замонавий ўқитишнинг интерфаол усуллари билан таништирилиб, жиноятни очишда муҳим аҳамиятга эга бўлган ашёвий далиллар намунаси кўргазмаси намойиш этилди.

Анжуманнинг иккинчи кунда хорижий меҳмонларга Самарқанд вилояти ИИБда ички ишлар органлари тергов-тезкор гуруҳининг босқинчилик ва қотиллик жиноятлари юзасидан ҳодиса жойини кўздан кечириш, ашёвий далилларни аниқлаш ва сифатли олиш ҳамда дастлабки тадқиқот ўтказиш бўйича тренинг машғулоти кўргазмалари тарзда кўрсатилди.

Шунингдек, эксперт-криминалистика соҳасида амалиётда қўлланилаётган тажрибалар, яъни, Самарқанд шаҳридаги вилоят ИИБ Ситуацион марказининг биометрик идентификация, сунъий интеллект ва рақамли ахборот-қидирув тизимларининг имкониятлари билан таништирилди. Иштирокчилар қадим ва навқирон шаҳардаги муқаддас қадамжолар ва тарихий обидаларига ташриф буюриб, юртимиз илм-фаннинг ривожланиш макони бўлганлиги ва тарихий қудратига юксак баҳо беришди.

Хулоса ўрнида таъкидлаш жоизки, мазкур халқаро илмий-амалий анжуман эксперт-криминалистика соҳасида салоҳиятли кадрларни тайёрлаш, жиноятчиликка қарши курашда ашёвий далиллар тадқиқоти ва илмий-техник исботлаш фаолиятини такомиллаштириш ҳамда халқаро ҳамкорлик муносабатларини янада ривожлантириш, бир сўз билан айтганда, тизим такомиллиги хизмат қилиши билан аҳамиятлидир.

Гулноза ТУРҒУНБОЕВА,
«Postda» мухбири.



Жизнь и судьба



Фото из архива, 2003 год.

Наталья рано потеряла маму. Ее воспитанием занимался отец, Ниёзмат ака, который прикладывал все силы к тому, чтобы дать дочери достойное образование.

После окончания школы №15 в Ургенче, Наталья поступила в строительный техникум. Отличную учебу она совмещала с общественной работой. Вместе с однокурсниками организовывала мероприятия, часто была их ведущей, выпускала

ЕЁ ЗАВЕТНАЯ МЕЧТА

Майор в отставке Наталья Пирова на протяжении многих лет самоотверженно служила в органах внутренних дел, чем обрела признание коллег и учеников.

стенгазету. Педагоги ставили Наталью в пример. Успешно завершив обучение, трудилась на фабрике. Следуя наставлениям старших работников, образцово выполняла возложенные задачи, стала лидером молодежи. Затем осуществляла деятельность в городских комитетах общественных организаций. Но в сердце у нее была заветная мечта – служить в органах правопорядка.

В один из дней девушка обратилась в отдел кадров областного УВД. Имея положительные характеристики, пройдя испытания профессионального отбора, Наталья Пирова была принята на службу в УВД.

Через некоторое время, учитывая ответственность, организаторские способности героини очерка, руководством управления было принято решение назначить

ее на должность инженера группы агитации и пропаганды подразделений пожарной безопасности УВД. И здесь Н. Пирова проявила себя как образцовый сотрудник, на высоком уровне работая с населением, проводя на предприятиях, в организациях, образовательных учреждениях профилактическую работу и разъяснительные встречи и беседы.

Желание стать квалифицированным специалистом привело Наталью Пирову в Высшую техническую школу пожарной безопасности МВД Узбекистана. Затем она служила в 1-м военизированном отряде пожарной безопасности в городе Ургенче.

Наталья Пирова стала наставником для многих молодых сотрудников.

– Мы восхищались глубиной ее знаний, неутомимостью, преданно-



стью профессии, – говорит капитан в отставке Роза Рахимова.

И сегодня майор в отставке Наталья Пирова принимает активное участие в воспитании молодежи, щедро делится богатым жизненным опытом. Ее любят, ценят и уважают.

Худойбергган ЖАББОРОВ,
корреспондент «Postda».

Хорезмская область.

1 июня – Международный день защиты детей

РАСТЕТ БУДУЩАЯ СМЕНА



Среди воспитанников старшей группы дошкольной образовательной организации «Пахтаой» УВД Андижанской области прошел конкурс «Кем я стану, когда вырасту?». На этот вопрос почти все ребята ответили: «Буду как папа – сотрудником органов внутренних дел».



– «Пахтаой» посещают 260 девочек и мальчишек, – говорит руководитель ДОО Хуршидахон Болтабаева. – Это дети сотрудников ОВД, силовых структур. Здесь созданы необходимые условия для полноценного развития ребят: они изучают английский, русский языки, занимаются музыкой, физкультурой.

Опытные воспитатели Насибохон Исмоилова, Наргиза Гулдаева, Муяссар Собирова, Мухайё Гуломова, Дилафруз Тулашева прикладывают все силы к тому, чтобы дети росли умными, веселыми, закаленными.

В «Пахтаой» проходят «День цветов», «День опытов и экспериментов», «День спорта», «День насекомых», театрализованные представления, сценарии которых пишут педагоги.

– Сын, Умиджон, с радостью приходит в «Пахтаой», – говорит майор Учкунбек Кучкаров. – Здесь дети шаг за шагом познают окружающий мир. Мы полностью доверяем коллективу дошкольной образовательной организации.

В дошкольной образовательной организации «Сумбула» при УВД Самаркандской области работают высокопрофессиональные специалисты. Стараниями администрации и педагогов

здесь оборудованы различные уголки, имеется все необходимое для воспитанников.

В красивом и уютном музыкальном зале не смолкают смех, песни, дети с радостью бегут сюда на занятия.





Faxriylar – faxrimiz

ORZULAR USHALGANDA

Ma'mura Jalilova bolaligidan ichki ishlar organlarida xizmat qilishni orzu qilardi. U Asakadagi o'rta maktabni tamomlagach, 1997-yilda O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasiga o'qishga kirdi. Bor kuch-g'ayratini o'qishga, imkon qadar ko'p narsani o'rganishga sarflagan Ma'mura qo'l jangi va sambo bilan ham shug'ullandi. 2003-yilda IIV Akademiyasi magistraturasini ekspert-kriminalist mutaxassisligi bo'yicha tamomlab, ushbu ta'lim muassasasining Ichki ishlar organlari rahbariyati tarkibini tayyorlash bo'yicha Oliy akademik kurslariga katta o'qituvchi-uslubchi lavozimida faoliyatini davom ettirdi. Qahramonimiz IIV Akademiyasidagi kursant qizlar rotasining ilk komandirlaridan biri hisoblanadi. U shu yerda tahsil olgan 80 dan ziyod qizlarga xuddi opasidek g'amxo'rlik qilib, turli muammolarini hal qilishga yordam berdi.



2007-yilda oilaviy sharoitiga ko'ra, Andijon viloyatiga qaytishga majbur bo'lgan M. Jalilovani viloyat IIB Jinoyat qidiruv va terrorizmga qarshi kurashish boshqarmasi tahlil bo'limi katta tezkor vakili lavozimiga tayinlashdi.

...Navbatchilik qismiga bosqinchilik sodir etilgan haqida xabar kelib tushdi. Tarkibida JQ va TQKB katta tezkor vakili, mayor M. Jalilova bo'lgan tergov-tezkor guruhi hodisa joyiga yetib bordi. Jabrlanuvchi ayolning aytishicha, kunduzi uyda yolg'iz qolganida, hovliga ikki nafar noma'lum erkak kirib kelgan va uning qo'llarini bog'lab, o'lim bilan tahdid qilgan holda, qaynotasi jamg'argan pullarini qayerda saqlashini aytishni talab qilishgan. Yosh ayol ularning tahqirlashlariga bir muddat bardosh berib turgan, biroq tomog'iga pichoq tiralgach, pul saqlanadigan joyni ko'rsatgan.

Jabrlanuvchining qarindoshi bergan ko'rsatmaga ko'ra, uning jamg'armasi 4 million so'mni tashkil etgan. Bosqinchilar negadir atigi 500 ming so'mni olgan, xolos. Tezkor xodimlarda A. Nafisaga nisbatan shub-

ha uyg'ondi. Shu bois mayor M. Jalilovaga Nafisa bilan suhbatlashib ko'rish taklif etildi. Natijada jabrlanuvchi o'zining dastlabki ko'rsatmalaridan adashib keta boshladi. Oxir-oqibat, u o'g'rilik holatini o'ylab topganini tan oldi. Ma'lum bo'lishicha, yaqin dugonasi unga 500 ming so'mlik turli zargarlik buyumlarini sotib olishni taklif qilgan. Nafisaning o'zida bunday pul bo'lmagani uchun qaynotasining jamg'armasidan yashirincha olgan. Keyin qarindoshlari bundan xabardor bo'lib qolishidan qo'rqib, bosqinchilik holatini o'ylab topgan. Bu «jinoiyat» bir kun ichida fosh etildi.

Andijon viloyati IIB JQ va TQKB katta tezkor vakili Ma'mura Jalilova jamoat tartibini saqlash tadbirlarida faol ishtirok etgani, xizmat burchini ado etish chog'ida ko'rsatgan jasorati, qahramonligi va fidoyiligi, huquq-tartibotni mustahkamlash va ijtimoiy-siyosiy hayotdagi faol ishtiroki uchun O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2010-yildagi farmoniga binoan, «Jasorat» medali bilan taqdirlandi.

– Nazariy va amaliy bilimlarni egallashimda o'z hissasini qo'shgan IIV Akademiyasi

o'qituvchilari – polkovniklar A. Yakubov, S. Ahmedova, R. Ahmedova, E. Arifjanovlarni doim minnatdorlik bilan eslayman, – deydi podpolkovnik Ma'mura Jalilova.

M. Jalilova 2013-yildan 2017-yilga qadar viloyat IIB EKBda ekspert-kriminalisti, 2017– 2020-yillar davomida HPB Xotin-qizlar masalalari bo'limi katta inspektori lavozimida xizmat qilib, pensiyaga chiqdi.

Ma'mura Jalilova viloyat IIB xodimlari o'rtasida munosib hurmat va obro'-e'tiborga ega, samarali xizmat qilish barobarida, jamoat ishlarida ham faol ishtirok etib, xotin-qizlar kengashi raisi va ayol xodimlar sport guruhiga ham rahbarlik qilib kelgan.

Hozirda iste'fodagi podpolkovnik M. Jalilova Andijon shahridagi Agrobankning hududiy filialida mas'ul lavozimda faoliyat olib bormoqda. Uydagi nabirasi bilan band bo'lishiga qaramay, IIB va sohaviy xizmatlarning yosh xodimlari bilan uchrashuvlar o'tkazishga vaqt topadi. Qiyin damlarda yelkama-yelka turgan hamkasblarini yaxshi so'zlar bilan eslaydi.

Boris KLEYMAN.

Andijon viloyati.

MURODJON OTANING FALSAFASI

Orzuga erishmoqlik yo'llari ko'p, biroq manzilga doim harakat va yaxshi niyat eltadi. Kamtarona yashab, shukronalik va qanoat bilan kunlarini o'tkazayotgan insonlarning hayotiy falsafasi, xulosalariga quloq tutsangiz, umrni yaxshi amallar bilan bezab yashash baxt ekaniga iqror bo'lasan kishi.

Uchqo'rg'onda halol, kamtar va serharakat 70 yoshli Murodjon ota Qosimov istiqomat qiladi. Bir necha yillar ichki ishlar organlarida xizmat qilgan iste'fodagi mayor Murodjon otani ana shu fazilatlariga elga tanitgan, desak, mublag'a emas.

Farg'onaning Oltiariq tumanida tug'ilgan Murodjon Qosimov maktabni tamomlagach, Samarqand davlat universitetining huquqshunoslik fakultetiga o'qishga kiradi. O'qishni tamomlagach, ichki ishlar organlaridagi xizmat faoliyatini Uchqo'rg'on tumani IIB tergov bo'linmasida boshlaydi.

Qahramonimiz xizmat yuzasidan Uchqo'rg'onda ishlab, shu yerlik bo'lib qolib ketdi. 1984–1997-yillar davomida tergov bo'linmasida samarali faoliyat olib bordi, topshiriqlarni mas'uliyat bilan bajardi. Ish boshlagan paytdan ikki yil o'tiboq, Ichki ishlar vazirligi tomonidan xizmatlari munosib e'tirof etilib, eng namunali tergovchi deb topildi.

Murodjon Qosimov chapdast, mohir sportchi bo'lib, talabalik yillarida og'ir atletika bilan shug'ullangan, futbol jamoalarining faol a'zosi bo'lgan. Harbiy xizmatni Sibirda o'tagan uchun morjlarga

qiziqib qolgan. Ya'ni, erta tongdan qahratonning chillasida daryoda cho'milayotgan sportchilar bilan do'stlashib, o'zini sinab ko'rmoqchi bo'lgan. Harbiy qism treneri, podpolkovnik Vladimir Goncharovdan suv sporti mashqlarini diqqat bilan o'rgangan. Mana, o'sha yigitlik davridan boshlab otaxon bu odatini kanda qilmay kelmoqda.

– Bilasizmi, mashina minmay qo'rganman, bir kunda 40 km masofani velosipedda bosib o'taman. Norin daryosi sohiliga yaqin joyda yashaganim uchun tong saharda 8 km masofaga yuguraman. Tanam qizigach, daryoning eng chuqur joyiga sho'ng'iyman. O'n daqiqa suvda turgach, yana chiqib mashqlarni davom ettiraman. Yana suvga sho'ng'iyman, – deydi faxriy.

Hayratlarimizni yashira olmaganimizni ko'rgach, so'zida davom etadi:

– Hammasi juda oddiy. Inson tanasini o'ziga bo'ysundirishi kerak.



Yoga mashqlarini bilasiz-a. Ular asli inson ruhiyatini chiniqtiradi. Men bu mashqlarni o'zimga moslashtirganman. Har bir o'tayotgan kunimga, barcha ne'matlariga chin dildan minnatdor bo'lib, shukrona aytaman. Ruhim yengil tortadi, onadan yangi tug'ilgandek bo'laman. Yangi shijoat bilan ish boshlayman.

Ayni paytda Murodjon otaning 50 sotix issiqxonasi bor. 3,5 gektar maydonda qulupnayzor tashkil etgan, qulupnayning besh xil navidan yetishtiradi. Mahsuloti xaridorgir, yon atrofdagi qishloqlardan ham


xaridorlar kelishadi. Shu kunlarda u katta loyihaga qo'l uribdi, issiqxonani kengaytirib, gidroponika usulida qulupnayning tezpishar, shirin ta'mli navidan yetishtirishni maqsad qilgan.

Murodjon ota Safuraxon aya bilan 5 farzandni tarbiyalab, uylab-joylashdi. Qizlari Nafisa, Nasiba, Nigora, o'g'illari Tohirjon va Ilhomjon otasi bilan faxrlanishadi. Ular 16 nabira va 2 evaraning bobo va buvijonisi.

Gulchehra BUVAMIRZAYEVA,
«Postda» muxbiri.

Namangan viloyati.



**Внимание: подросток!**

РАБОТАТЬ НА ОПЕРЕЖЕНИЕ

В Чартакском районе Наманганской области действуют 56 общеобразовательных школ, две профессиональные школы и техникум. Системную деятельность по профилактике правонарушений среди учащихся осуществляют инспекторы группы по делам несовершеннолетних и молодежи ОПП СОБ ОВД района.

Нездоровая обстановка в отдельных семьях, конфликты между родителями, оставление детей без присмотра отрицательно сказывается на поведении несовершеннолетних.

– Данная категория подростков – в центре внимания, – говорит старший инспектор-психолог

по делам несовершеннолетних капитан Рахматулло Собитхонов. – Работаем в контакте с педагогами, активистами махаллей, поясняем ребятам, у которых проявляются элементы девиантного поведения, последствия их действий. В настоящее время на профилактическом учете находятся 10 подростков,

13 – помещены в Центр оказания социально-правовой помощи.

Капитан Р. Собитхонов с ответственностью подходит к своему делу. С ребятами, состоящими на учете, склонными к совершению правонарушений, проводит индивидуальные беседы, учитывая, что данная категория подростков может оказывать деструктивное влияние на сверстников.

...Поступил сигнал, что в компьютерном клубе допоздна задерживаются шесть школьников. Проверка подтвердила данный факт. К владельцу заведения применены меры административного характера. Учащиеся же, после разъяснений, направлены на курсы «IT School». Соответствующие решения были вынесены и по итогам мероприятий «Бозор боласи», «Тиф», «Давомат».

Приняты меры в отношении родителей 312 подростков, не обеспечивавших их участие в школьных занятиях. 11 учеников сняты с внутреннего учета в связи улучшением поведения.

– Для нас важно, чтобы «трудные подростки» менялись в лучшую сторону, – отмечает капитан Р. Собитхонов. – Несовершеннолетние очень восприимчивы. Вопрос только в том, кто окажется рядом – человек, наставляющий на правильный путь, либо тот, кто приведет к совершению правонарушения или преступления. В нынешнее сложное время, когда идет борьба за души и умы подрастающего поколения, мы должны работать на опережение.

Гулчехра БУВАМИРЗАЕВА,
корреспондент «Postda».
Наманганская область.

**Насилие – противоправно**

СЕМЕЙНЫЙ РАЗДОР

Законом Республики Узбекистан «О внесении изменений и дополнений в некоторые законодательные акты Республики Узбекистан в связи с дальнейшим совершенствованием системы надежной защиты прав, свобод и законных интересов женщин и детей» от 11 апреля 2023 года установлены строгие меры административной и уголовной ответственности за насилие, совершенное в отношении женщин и детей.

Люди должны осознавать неприемлемость насилия в любой форме и к кому бы то ни было. Насилие к человеку, личности, унижение его, ущемление прав – нетерпимое явление.

Словесная перепалка с адресными оскорблениями, которая переросла в рукоприкладство и как итог нанесение телесных повреждений одному из участников конфликта, послужила причиной возбуждения уголовного дела. А началом этой истории стали семейные неурядицы, которые происходили в семье молодоженов, куда были втянуты и близкие родственники.

В доме 24-летнего Асрора (имена изменены из этических соображений) отгремели свадебные торжества, их семья отдавала сестренку замуж. После мероприятий жизнь в доме текла в обычном русле. И вроде все складывалось замечательно. Со слов родителей, новые родственники приняли его сестренку как свою дочь.

Многие из нас опекают близких и любимых сердцу людей. Асрор часто звонил сестренке, интересовался, как у нее дела, может ей что-нибудь нужно. Асрор среди друзей слыл человеком самодостаточным, на него можно было положиться. Но в его характере присутствовала вспыльчивость, возможно повышен-

ное чувство справедливости было тому причиной.

В один из дней, когда сестренка пришла к ним в гости, Асрор заметил, что несмотря на улыбку на лице, взгляд ее был потухшим. Он поинтересовался: «Все ли нормально?». Сестренка кивнула головой, в этот момент он заметил гематому на запястье ее руки. «Откуда это?», – спросил Асрор. «Я ударилась», – последовал ответ сестренки. Неуверенность, которая сквозила в ее словах, первый раз подтвердила его догадку. В душе поднялась ярость. И тогда он решил переговорить с новоиспеченным родственником.

На следующий день он позвонил зятю и попросил подъехать к его офису. Ког-


да Асрор спустился вниз, то увидел, что тот приехал не один. Асрор понял, что зять его побаивается, раз не согласился провести разговор один на один. Асрор стал убеждать его пройти в офис, тот долго не соглашался. Асрор объяснил Камолу (так звали зятя), что обговаривать сложившуюся ситуацию на улице не будет, вокруг слишком много народа. Когда молодые люди поднялись в кабинет Асрора, у них состоялся обстоятельный мужской разговор. Камол озвучил причину ссоры, которая произошла в их молодой семье, пообещал больше не поднимать руку на супругу. На этом и распрощались. Однако буквально через месяц си-

туация повторилась. Асрор, узнав об этом, направился в дом зятя вместе с знакомым – 25-летним Якубом. Подъезжая к дому Камолы, он позвонил ему и попросил подъехать к началу улицы, ведущей в махаллю. Камол подъехал, и на этот раз он был не один, его сопровождал брат. Каждая из сторон начала сыпать оскорбления, задевая ближайших родственников. Асрор не выдержал. В нем настолько сильно кипел гнев, что затмил его разум. Он нанес удар Камолу. В этот момент к драке подключился его друг Якуб, они стали избивать братьев. Драку остановили подоспевшие родственники.

Камол обратился в УКД ОВД Яшнабадского района

с заявлением. Следственным отделом было возбуждено уголовное дело по ст. 277 («Хулиганство») УК Узбекистана. Уголовное дело после окончания предварительного следствия с обвинительным заключением было направлено в суд для принятия законного решения. 24-летний Асрор, оказавшись на скамье подсудимых, возможно, поймет, что гнев плохой советчик и решать конфликты стоит без применения силы.

С деталями уголовного дела ознакомил следователь СО при УКД ОВД Яшнабадского района города Ташкента капитан Ф. ИРГАШЕВ.



✓ *Инсон қадри учун*

ЎЗГАРИШЛАРДАН МАҲАЛЛА АҲЛИ МАМНУН

Ободлик бор жойда файз-барака, фаровонлик бўлади. Чилонзор туманида жойлашган «Хонтўпи» маҳалласи ҳам пойтахтимизнинг энг кўркем ва файзли маҳаллаларидан бири. Маҳаллада 516 та ҳовлили хонадон бўлиб, уларда 4600 нафардан ортиқ фуқаро истиқомат қилади.

Маҳалла фуқаролар йиғини раиси Шухрат Аҳмадалиев, ҳоким ёрдамчиси Фурқат Умаров, хотин-қизлар фаоли Мадина Усмонова, маҳалладаги 341-ички ишлар органи таянч пункти профилактика катта инспектори, майор Голиб Хуррамов ва профилактика инспектори, капитан Анвар Отахоновларнинг бирдамлиги ҳамда ҳаммаслаклиги туфайли бир қатор ижобий ишлар амалга оширилмоқда.

Худуд аҳолиси ҳовли жойда истиқомат қилганлиги боис ҳам маҳалладошлар деярли бир-бирини танийди, аҳил ва иноқ яшаши. Бирон бегона киши маҳаллага ораласа, бирданга кўзга тушади.

– Нотинч оилалардаги мавжуд муаммоларни бартараф этган ҳолда, соғлом турмуш тарзига қайтаришни асосий мақсад қилиб олганмиз, – дейди маҳалла фуқаролар йиғини раиси Шухрат Аҳмадалиев. – Профилактика инспекторлари, фаоллар ва отахону онахонларимиз билан биргаликда аҳоли орасида оила муқаддаслигини тарғиб қилувчи маънавий-маърифий ва маданий тадбирлар ўтказиб келмоқдамиз. Шунингдек, оилавий низолар, қўни-қўшнилар ўртасидаги жанжаллар ҳам жойида ҳал этилмоқда, энг муҳими, ажралишларнинг олди олинмоқда. Хусусан, йил бошидан



буён яраштирув комиссиясига келиб тушган мурожаатлар ўрганилиб, 4 та оила яраштирилди. Бундан ташқари, жорий йил бошидан буён бирорта ҳам жиноят содир этилмаганини алоҳида таъкидлаш жоиз. Бунда албатта профилактика инспекторларининг ўрни катта. Бунинг учун уларга қулай шарт-шароит яратаётган ва маҳалланинг янада обод бўлишида яқиндан ёрдам бераётган вазирлик раҳбариятига алоҳида миннатдорлик билдирамиз.

Шунингдек, маҳаллада истиқомат қилувчи кам таъминланган ва ёрдамга муҳтож бўлган оилаларга жорий йил бошидан буён туман ҳокимлиги томонидан 212 миллион сўмдан ортиқ моддий ёрдам берилди. Шулардан 9 нафари «Темир дафтар» ва 110 нафари «Аёллар дафтари»га киритилганлар. «Ёшлар дафтари»га киритилган 11 нафар

келажагимиз эгаларига ҳам ўз вақтида кўмак кўрсатилгани боис уларнинг барчаси рўйхатдан чиқарилди.

Худудда Ички ишлар вазирлиги ва туман ҳокимиятининг бевосита кўмаги остида ободонлаштириш ва кўкаламзорлаштириш ишлари жадал кетмоқда. Хусусан, мавжуд 14 та кўча ободонлаштирилди ва 2 та кўча тўлиқ асфальт қилинди. Ҳуқуқбузарликлар ва жиноятчиликнинг олдини олиш мақсадида видеокузатув мосламалари ўрнатилди.

– Охирги пайтларда маҳалламиз янада чирой очмоқда, – дейди кекса отахон Шамсиддин Қутбиддинов. – Мана, ногиронлиги бор, ёлғиз яшайдиган Матлубахон Зуфаро-

ванинг уйи таъмирдан чиқарилди. Айрим кўчаларимизда чироқлари йўқ эди. Уларга чироқлар ўрнатилиб, кечалари ҳам кундуздек бўлиши таъминланди. Бундай савобли ишлар давом этмоқда. Барака топишсин мутасаддилар!

Аҳоли бандлиги таъминланиши учун ҳам тегишли ишлар қилинмоқда. Мисол учун, тўқувчилик ва тикувчилик цехида 21 нафар киши доимий иш билан банд.

Юртимизда олиб борилаётган ислохотларнинг бош мақсади – инсон қадри ва унинг манфаатлари учун. Чилонзор туманидаги «Хонтўпи» маҳалласида ҳам ана шу эзгу мақсад амалда бўй кўрсатмоқда. Асосийси, бу ўзгаришлардан маҳалла аҳли мамнун.


Сарвар СОБИРОВ,
«Postda» мухбири.

Тошкент шаҳри.

КЕЧА

ВА

БУГУН





Халқ ичида, халқ билан бирга

МАҲАЛЛАНИНГ ТИНЧЛИК УЙИ

Инспектор кутилмаганда йўлни бошқа тарафга бошлади. Мирзаободдан М-34 йўлига чиқдик. Тошкент тарафга қараб кетарканмиз, ажабланишим ортди. Ўн беш чақиримча юрганмиздан кейин машина тўхтади. Атрофга назар ташладим. Туманнинг «Оқолтин» маҳалласини кесиб ўтган катта трассанинг бўйи. Сал нарироқда юртимиз байроғи осиб қўйилган уйга кўзим тушди. Тушундимки, профилактика инспекторининг хизмат уйига келдик.

Кираверишда бир туп садақай-рағоч ястаниб турибди. Унинг ям-яшил барглари ён-атрофга гўзаллик бахш этади. Капитан Абдурасул Сатторкулов уйнинг дарвозасини очди. Ҳовли томондан жажжигина қизалоқ югуриб чиқди.

– Дада, келдингизми?!

Ота-боланинг кучоқлашиб кўришиши кишини ҳаяжонга солди. Сал нарида эса кулиб турган уй бекаси чамаси икки ёшли болакайни етаклаганча бизни қарши олди. Оила билан танишув шу тарзда бошланди.

Абдурасул Сатторкулов 1987 йилда Мирзаобод туманида туғилган. Гулистон давлат университетини тугатгач, 2013 йили ички ишлар органи тизимига ишга қабул қилинди. Хизмат фаолиятини Мирзаобод тумани ИИБ ХПБ профилактика инспектори вазифасида бошлади. Уни туманнинг четроқ маҳалласига хизматга юборишди. Бир йил олдин эса ушбу маҳаллага ўтказишди. Маҳаллага оиласи билан кўчиб келган инспектор аҳоли билан тезда чиқишиб кетди. Уларнинг тўйи, азаси, маъракаларини қолдирмасликка ҳаракат қилди. Натижада тезда танилди. Одамлар унга дардини айтиб келадиган бўлди.

– Президентимиз ташаббусига кўра, ҳар бир маҳаллада профилактика инспекторининг хизмат уйлари барпо этилиши нақадар тўғри бўлганига кўп бор амин бўлганман, – дейди Абдурасул. – Ички ишлар органи ходимининг маҳалла аҳли билан бирга яшашининг ўзи криминал вазиятга ижобий таъсир қиларкан. Қинғир ниятли шахслар ўзини тийиб юришга мажбур. Иккинчи тарафдан профилактика инспекторига ҳам қулай. У хизмат ҳудудида муносиб яшаш шароитига эга бўлгани учун хаёли бўлинмай ишлайди.

Фотима Сатторкулова капитаннинг турмуш ўртоғи. Биргаликда бир ўғил ва бир қизни вояга етказишмоқда.



– Ҳаётимдан мамнунман, – дейди Фотима. – Фарзандларим тўқис вояга етмоқда. Уйда барча шароитлар бор. Кичик бўлса ҳам томорқамизда полиз маҳсулотларини экканмиз. Картошка, пиёз, помидор, дегандай рўзғорга керакли сабзавотлар ўзимиздан чиқади. Томорқангизга экин эксангиз, ҳечқурса, гулу райҳон қаламчаларини қадасангиз ҳам,



яшилликдан, гўзалликдан кўз қувнайди. Рўзғорнинг каму кўстида томорқада етиштирган ҳосилларингиз асқатади.

Ҳовлида турли сабзавотлар экилган. Помидор ҳосилга кирибди. Бақлажон, булғор қалампири яшнаб ўсаяпти. Абдурасул хизматдан ортиб мўъжазгина томорқада ишлашга вақт топганига тасанно. Хизмат уйининг шундоқ ёнгинасида ичимлик суви минораси жойлашган экан. Унинг энг тепасига лайлаклар ин қурган. Буни маҳаллада осойишталикнинг белгиси эканига йўйдик.

Аҳоли капитан Абдурасул Сатторкулов хизмат уйига тортинмай мурожаат қилиб келади. Ҳеч бир мурожаат эътиборсиз қолмайди. Кираверишига профилактика инспекторининг телефон рақами ёзиб қўйилгани ҳам бундан далолат.

– Бизга шундай шароит яратиб берилгани учун Президентимизга, Ички ишлар вазирлиги раҳбариятига раҳмат, – дейди капитан Абдурасул Сатторкулов. – Шундай шароит туфайлигина фаолиятимизда самара, унум бор.

Абдурахмон МУСТАФОҚУЛОВ,
«Postda» мухбири.

Сирдарё вилояти.

БУХОРО ВИЛОЯТИ
ИИБ ХАБАРЛАРИ

ТАМАГИР ХОДИМЛАР ФОШ ЭТИЛДИ

Маҳаллабай ишлаш ва тадбиркорликни ривожлантириш агентлиги вилоят бошқармаси бош мутахассиси Б.О., Иқтисодиёт ва молия бош бошқармаси шўба мудири Р.Ж. билан олдиндан ўзаро жинойий тил бириктириб, фуқаро З.А.га Бухоро шаҳридан субсидия асосида уй олиб бериш эвазига 600 АҚШ доллари беришни тамагирлик йўли билан талаб қилади. Фуқаро З.А. бу ҳолатда жиноят аломати «бўй кўрсатиб» тургани учун вилоят ҳуқуқни муҳофаза қилувчи органларга билдиради. Унинг аризаси асосида ҳамкорликда тезкор тадбир ўтказилди. Тадбир давомида Б.О. пулларни олган вақтида ашёвий далиллар билан қўлга олинди.

ТУМШУФИДАН ИЛИНДИ

Бухоро шаҳрида яшовчи Ш.Ш. исмли аёл ўзини Бухоро тиббиёт техникуми ўқитувчиси деб таништириб, икки нафар фуқарони алдаб, ўзига бўлган ишончни суиистеъмол қилади. Яъни, у техникумининг мансабдор шахслари орқали бирини мазкур техникумга ишга жойлаштириш эвазига 1800 АҚШ доллари ҳамда иккинчисини шу техникумга ўқишга жойлаштириш учун 1000 АҚШ доллари сўрайди.

Яқинда вилоят ҳуқуқ-тартибот органи томонидан ўтказилган тезкор тадбир давомида тамагир аёл Бухоро шаҳридаги «Карвон» буюм бозори ҳудудида иккала фуқаро билан учрашиб, улардан талаб қилинган пуллардан 2000 АҚШ долларини олган вақтида ашёвий далиллар билан қўлга олинди.

ЎҚУВЧИЛАР УСТОЗИГА ТОПШИРИЛДИ

Бухоро шаҳрининг қадимий объектлари бўйлаб саёҳат қилгани келган Шофиркон туманидаги 9-мактаб ўқувчилари — Муаттар Низомова ва Нафиса Рўзиевалар эътиборсизлиги туфайли гуруҳидан ажралиб қолишади. Икки дугона ўз гуруҳини ва устозини тополмай анча сарсон бўлади. Яхшиямки, шу ҳудудда хизмат олиб бораётган вилоят ИИБ Хавфсиз туризмни таъминлаш бошқармаси масъул ходимларини учратишади. Дарров уларга мурожаат қилиб, ёрдам беришларини сўрашади.

Мазкур ҳолат Хавфсиз туризмни таъминлаш бошқармаси ходимлари томонидан зудлик билан ўрганилди. Олиб борилган тезкор чора-тадбирлар натижасида ўқувчилар устозига топширилди. Сўнгра уларга эҳтиёткорликни оширишга доир тегишли тушунтиришлар берилди.



■ Республика Каракалпакстан



RALLY MUUNAK – 2023

В Муйнакском районе Каракалпакстана прошли международные экстремальные автомобильные соревнования Rally Muunak – 2023.



Мероприятие, которое проводилось в четвертый раз, было организовано по инициативе Министерства туризма и культурного наследия Каракалпакстана во взаимодействии с Жокаргы Кенесом, Советом Министров Республики Каракалпакстан, организацией «Ватанпарвар», хокимиятом Муйнакского района, Каракалпакским отделом Ассоциации поваров Узбекистана, другими ведомствами и учреждениями.

Соревнования стартовали 25 мая. На церемонии их открытия выступил заместитель Председателя Совета Министров Республики Каракалпакстан Расул Зарикеев, который пожелал удачи участникам состязаний.

– Экстремальные автомобильные соревнования Rally Muunak впервые были проведены в 2019 году в соответствии с Указом Президента от 5 января 2019

года «О дополнительных мерах по ускоренному развитию туризма в Республике Узбекистан». Они привлекли внимание большого числа участников. Министерством туризма и культурного наследия Республики Каракалпакстан было внесено предложение о регулярном их проведении, что было одобрено Кабинетом Министров Республики Узбекистан. Интерес к соревнованиям весьма высок среди спортсменов Российской Федерации, стран Центральной Азии, количество желающих принять в них участие увеличивается. В нынешних соревнованиях задействовано более 40 автомобилей, свыше 20 мотоциклов и 10 багги, всего около 150 спортсменов. Еще одной особенностью мероприятия, проводимого в этом году, является то, что оно длится четыре дня. Это позволит обогатить впечатления туристов о Каракалпакстане. Днем



– соревнования на спортивных автомобилях, багги и мотоциклах, выставки ремесленников, гастрономические шоу искусных поваров, по вечерам – концерты электронной музыки известных диджеев, – рассказывает главный специалист Министерства туризма и культурного наследия Каракалпакстана Икрамбек Рузимбаев.

Следует отметить, что протяженность гоночной трассы составляет 425 км, большая часть маршрута пролегает по бездорожью плато Устурт и высохшему дну Аральского моря. Для мотокросса и автокросса была предусмотрена отдельная трасса. Естественно, во время соревнований спортсмены столкнулись со многими трудностями, но даже в самых сложных ситуациях они их преодолевали.

– Облик региона кардинально меняется. Муйнакскому району уделяется особое внимание. Неу-

клонно расширяются туристические возможности. Это отмечают не только местные жители, но и гости, поэтому обеспечение общественной безопасности – важнейшее требование. В целях надлежащей организации соревнований Rally Muunak с сотрудниками ОВД был проведен дополнительный инструктаж, распределены задачи по надежному обеспечению правопорядка, – говорит начальник РОВД подполковник Руслан Турганбаев.

Соревнования Rally Muunak – 2023 завершились 28 мая. В церемонии награждения победителей принял участие Председатель Жокаргы Кенеса Каракалпакстана Аманбай Орынбаев, который выразил благодарность спортсменам, принявшим участие в международных авторалли.

Азамат ПИРНИЯЗОВ,
корреспондент «На посту».





Маънавият ойлиги

Тошкент шаҳри. Олмазор тумани ИИОФМБ ходимлари «Ҳазрати Имом» мажмуаси, Шаҳидлар хотираси ёдгорлик мажмуи ҳамда Ислом Каримов номидаги илмий-маърифий ёдгорлик мажмуаси музейига саёҳат қилишди.



«Ҳазрати Имом» мажмуаси минг йиллардан буён Ислом маданияти маркази бўлиб қолмоқда. Унинг қаршисида ўттиз мингдан ортиқ диний ва дунёвий китобларга эга кутубхона ва музей жойлашган. Музей қадимги ёдгорликлар ҳамда ислом динига оид турли китоблардан ташкил топган.

Осойишталик посбонларига, шунингдек, Шаҳидлар хотираси ёдгорлик мажмуида XX асрнинг 20-йилларидан то Иккинчи жаҳон уруши бошлангунигача қадар бўлган

давр ҳақидаги воқеалар сўзлаб берилди. Ҳозирги осойишта кунларнинг қадрига етишга ундовчи экспонатлар ходимларда чуқур таассурот қолдирди.

Бундан ташқари, улар Ислом Каримов номидаги илмий-маърифий ёдгорлик мажмуаси музейидан ўрин олган тарихий суратлар ва қисқа метражли лавҳалар ҳамда Биринчи Президентимизнинг босиб ўтган машаққатли йўллари ва фаолияти ҳақида ҳам муҳим маълумотларга эга бўлишди.



Қорақалпоғистон Республикаси. Нукус шаҳрида вазирлик ва унинг қуйи тизимлари ходимлари ўртасида «Заковат» интеллектуал ўйини ташкил этилди. Унда вазирликнинг соҳавий хизматлари ва барча шаҳар-туман ички ишлар органларидан 25 та жамоа иштирок этди.

Яқуний натижаларга кўра, Қўнғирот тумани ИИБ жамоаси интеллектуал ўйини голиблигини қўлга киритиб, фахрий ёрлик ва эсдалик совғалари билан тақдирланди.



Самарқанд вилояти. Халқаро аэропортларда хавфсизликни таъминлаш кўшинларига қарашли Самарқанд шаҳрида жойлашган 7252-ҳарбий қисмда «Маънавият ойлиги» доирасида китоб ярмаркаси ўтказилди.



Фидойи ҳамкасбларимиз

26 ЙИЛ ХАЛҚ ХИЗМАТИДА

Подполковник Асқаржон Толибжоновни Ўзбекистон тумани ИИБдаги кўплаб ёш ходимлар ўзларига чинакам устоз деб билишади. 26 йилдан бери халққа садоқат билан хизмат қилиб келаётган соҳа фидойиси профилактика инспектори сифатида тўплаган бой амалий тажрибасини ёшларга ўргатишдан асло эринмайди.

Дастлаб Ёнғин хавфсизлиги хизматида фаолиятини бошлаган қаҳрамонимиз айти пайтда Ўзбекистон туманидаги «Навбахор» маҳалласида профилактика инспектори вазифасида ишлаш билан бирга, катта инспектор сифатида ҳудуддаги 5 нафар ёш профилактика инспекторларига устозлик ҳам қилади.

– 5585 нафар аҳоли яшайдиган



маҳалламиз Қўқон шаҳрига туташ ҳудудда жойлашган. Аҳоли орасида тадбиркорлик соҳасида фаолият кўрсатувчилар жуда кўп – дейди подполковник Асқаржон Толибжонов. – Масалан, маҳалламизда 23 та ишлаб чиқариш корхонаси мав-

жуд. Шунингдек, 15 киши оилавий тадбиркорлик билан шуғулланади, 42 та хонадонда иссиқхона мавжуд.

Профилактика инспекторининг яна бир ютуғи – маҳалла раиси Хуршидjon Баратов ички ишлар органларида хизмат қилиб, пенсияга чиққан, истеъфодаги капитан. Маҳалла фаолларининг ўзаро ахиллиги эса маҳалладаги ютуқларнинг муҳим омили бўляпти. Айниқса, «хонадонбай» ва «фуқаробай» усулидаги ўрганишларнинг йўлга қўйилгани, жиноят содир этишга мойил шахслар, нотинч оилалар билан

манзилли иш олиб борилаётгани ўз самарасини бермоқда. Муаммолар эрта аниқланиб, жойида бартараф этиляпти. Фуқароларнинг даромадли юмушлар билан доимий бандлиги ортиб, ишсизлик камаймоқда. Аҳоли орасида ўзаро тотувлик ва ҳамжиҳатлик муҳити мустаҳкамланяпти. Ўз-ўзидан бу омиллар жиноят ва ҳуқуқбузарликларнинг олдини олишда қўл келмоқда. Оилавий ажримлар умуман қайд этилмади.

Подполковник Асқаржон Толибжонов ўзи хизмат олиб бораётган Ўзбекистон туманидаги Яккатут қишлоғида туғилиб ўсган. Турмуш ўртоғи Маҳфузахон Раимжоновна ҳамшира. Улар ахил ва ҳамжиҳатликда 2 нафар фарзандни намунали инсонлар қилиб вояга етказишмоқда.

Абдувосит СИДИҚОВ,
«Postda» мухбири.

Фарғона вилояти.





Hafta qahramonlari

HUSHYOR XODIMLAR

4 kilogramdan ortiq giyohvandlik moddasini ushlab qolishdi

Soat millari taxminan 22:00 ni ko'rsatgan mahal. Surxondaryo viloyatini qo'shni viloyat bilan bog'lab turadigan asosiy o'tish posti – Boysun tumanidagi «Darband» YPX maskaniga «Mercedes-Benz» rusumli avtomobil kelib to'xtadi. Bu yerda xizmat olib borayotgan YPX inspektori, safdor Javohir Mirzayev haydovchining hujjatlarini ko'zdan kechira boshladi. Shu jarayonda yo'lovchilardan birining nigohidagi xavotir uning e'tiborini tortdi. Ichida shubha paydo bo'lgan inspektor kinologiya bo'linmasi xodimi, safdor Xurshid Jumayevni chaqirtirdi va avtomobilni xizmat iti yordamida ko'zdan kechirishini aytdi.

Tekshiruv jarayonida yo'lovchilardan birining sport sumkasida 3 ta oq rangli sellofan



paketga o'ralgan o'tkir hidli modda borligi aniqlandi.

Endi holatga oydinlik kiritish kerak. Xodimlar haydovchi va yo'lovchilardan surishtira boshlashdi. Sumka egasi fuqaro S.Madaminov (ism-sharifi o'zgartirildi) esa avvaliga biroz kalovlandi, so'ngra, qistovga olingach, yorildi. U surishtiruv jarayonida Denov tumani Sina qishlog'ida notanish shaxsdan ushbu giyohvandlik moddasi – qoradorini sotib olganini ma'lum qildi.

Giyohvandlik vositasi o'lchab ko'rilganida, 4 kg 80 gr ekani aniqlandi. Hozirda holat yuzasidan tezkor surishtiruv ishlari olib borilyapti.

Ha, qing'ir ishning qiyig'i baribir chiqqanidek, ushbu jinoyat ham «issiq izida» fosh etildi. Bu Surxondaryo viloyati IIB xodimlarining hushyorlik bilan olib borayotgan xizmatlari natijasidir.

Feruz RAHMONQULOVA,
«Postda» muxbiri.

Surxondaryo viloyati.



Fidoi xodimlar

«XONNAZAR» MAHALLASINING INSPEKTORI

Qo'shrabot tumani «Xonnazar» mahallasiga yilning qay faslida bormang, vaqtini behuda sarflab yurgan odamni uchratmaysiz. Chunki mahalla ahli ishning ko'zini biladigan, mehnatsevar insonlar. Ular erta bahordan to kuzning quyoshli kunlari qadar shirasi tilni yoradigan uzumzor bog'larida sohibkorlik qilishsa, qishning qor-qirovli kunlarida ham quruq mevalarni qayta ishlashdek foydali, daromadli mehnat bilan mashg'ul. Hududdagi tinchlik-osoyshtalikka esa profilaktika katta inspektori, kapitan Hasan Ashirov mas'ul.

– Xizmat hududimdagi 736 ta oilada 3527 nafar aholi istiqomat qiladi, – deydi inspektor. – Ularning o'ttiz-qirq foizi shu yerdagi «Yetti xazina» tovuq fabrikasida band bo'lsa, bir guruh xotin-qizlar Oqdaryo tumanidagi «Zarafshon» tikuvchilik korxonasida ishlaydi. Shuningdek, mahallada uzumni qayta ishlash bo'yicha tadbirkorlik, qandolatchilik faoliyatini yo'lga qo'yganlar ko'p. Bu yerda xizmat olib borayotganimga qariyb besh yildan oshdi, katta-yu kichikni yaxshi taniyman. Ana shu jihat aholi bilan ishlashda juda asqatadi.

Kapitan Hasan Ashirov asli bulung'urlik. Hozirda esa faoliyat olib borayotgan mahalladagi shinamgina xizmat uyida oilasi bilan yashaydi. Ayoli Charos Karimovning kasbi pedagog. Ushbu mahalladagi 12-umumta'lim maktabida ishlaydi. U ta'limni oliy o'quv yurtida davom ettirish istagidagi o'quvchi-yoshlarga ona tili va adabiyot

fanidan qo'shimcha mashg'ulotlar ham olib boradi.

– O'g'lim bilan kelinim ko'pning qatorida, yurt koriga yarab, elimizga naf keltirayotganidan faxrlanaman, – deydi Hasan Ashirovning onasi Suymaxol aya. – Har doim ularning zimmasidagi vazifalarini bekamu ko'st bajarishini xohlayman. Shu bois nabiralarim Xondamir, Akbarshoh, Mironshohga ko'z-quloq bo'lib, ular bilan birga yashayman. Nabiralarimning ta'lim-tarbiyasi haqida qayg'uraman. Kelgusida ota-onasidek ziyoli insonlar bo'lishini istayman.

Oilasi tinch, xonadoni farovon inson mehr qo'ygani kasbida ham haqiqiy ma'noda ishlab, yashaydi. Qahramonimiz ham ana shundaylardan. U ichki ishlar organlari xodimi sifatida faoliyat boshlagan dastlabki yillar ustoz safdor Ismoil Majidov, keyinchalik mayorlar Nodir Soli-



yev, Sheroz Ahmedovdan soha sirlarini puxta o'zlashtirgan. Fuqarolarni tinglab, kezi kelganda, kutilmagan xush-noxush holatlarda jo'yali yechim topa oladi. Mahalla ahli ham uning jonkuyarligini biladi va qadrlaydi.

«Xonnazar» mahallasi «yashil» toifadagi hudud hisoblanadi. Jinoyatchilik va huquqbuzarliklarga mehr-oqibatli, bir yoqadan bosh chiqarib, kengashib, kelishib farovon hayot kechirayotgan hudud ahli insof-diyonat, oriyat degan insoniy fazilatlar bilan chegara tortgan. Bunda profilaktika inspektori kapitan Hasan Ashirov hamisha ularga yelkadosh va hammaslakdir.

Gulnoza TURG'UNBOYEVA,
«Postda» muxbiri.

Samarqand viloyati.



www.postda.uz



t.me/postdarasmiy



www.facebook.com/postdauz



www.instagram.com/postda_uz

ОТКРЫТОСТЬ – ВАЖНЫЙ ФАКТОР ПРЕДУПРЕЖДЕНИЯ КОРРУПЦИИ

Открытость и прозрачность деятельности государственных органов и организаций – основополагающий принцип любого правового демократического государства. Эта форма взаимодействия государства и общества означает наличие правовой и фактической возможности доступа физических и юридических лиц к информации об их деятельности, гарантию права на ее получение.

Реализация названного принципа обеспечивает подотчетность государственных органов и организаций населению, способствует повышению ответственности за принимаемые решения, усиливает эффективность общественного контроля, снижает бюрократические преграды, сокращает безосновательные расходы государства. Данный принцип имеет важное значение в предупреждении коррупционных правонарушений.

Особая значимость принципа открытости и прозрачности деятельности государственных органов и организаций обусловила конституционную гарантию ее обеспечения. Так, в соответствии с п. 10 ст. 115 Конституции Республики Узбекистан одним из полномочий Кабинета Министров является принятие мер по обеспечению открытости и прозрачности, законности и эффективности в работе органов исполнительной власти, противодействию коррупционным проявлениям в их деятельности, повышению качества и доступности государственных услуг. Статья 148 определяет, что процедуры формирования и исполнения Государственного бюджета Республики Узбекистан осуществляются на основе принципов открытости и прозрачности.

Важность указанного принципа в противодействии и предупреждении коррупции предопределяет наличие ряда нормативно-правовых актов, направленных на его обеспечение. **В частности, Законом «О противодействии коррупции» открытость и прозрачность определяются в качестве основных принципов противодействия данному социальному злу.**

На реализацию рассматриваемого принципа нацелены положения указов главы государства. Указом Президента Республики Узбекистан от 16 июня 2021 года «О дополнительных мерах по обеспечению открытости деятельности государственных органов и организаций, а также эффективной реализации общественного контроля» утвержден перечень социально значимой информации, подлежащей размещению в качестве открытых данных всеми

органами государственной власти и управления, в том числе Счетной палатой, Центральным банком, судами и органами прокуратуры, их структурными и территориальными подразделениями, а также хозяйственными обществами с долей государства в уставном фонде (уставном капитале) 50 процентов и более, государственными унитарными предприятиями.

Государственные органы и организации должны ежегодно до 1 марта размещать отчеты о своей деятельности (за исключением государственных секретов и сведений, предназначенных для служебного пользования) на своих официальных веб-сайтах, до 10 марта – информировать о месте и времени их обсуждения с участием широкой общественности, до 1 апреля – проводить пресс-конференции для обсуждения отчета. Кроме того, они обязаны размещать и ежеквартально обновлять на Портале открытых данных Узбекистана и на своих официальных веб-сайтах сведения, названные в Указе. К таким, например, относятся сведения об осуществленных госзакупках, в том числе о товарах (работах, услугах), приобретаемых по прямым контрактам, расходах на служебные командировки должностных лиц, годовых сметах расходов и их исполнении и др. Безусловно, предоставление подобной информации – действенный способ предупреждения коррупционных проявлений.

Обеспечение открытости и прозрачности в сфере государственных закупок, предотвращение хищения бюджетных средств – цель Закона «О государственных закупках», согласно которому вся информация о закупках, осуществляемых госорганами и организациями, размеща-

ется на информационном портале d.xarid.uz.

Законом Республики Узбекистан от 8 августа 2022 года «О государственной гражданской службе» открытость и прозрачность также определены в качестве принципа государственной гражданской службы.

В обеспечении достоверности, полноты информации об открытости и прозрачности деятельности государственных органов и организаций важную роль играет мониторинг и оценка. В этом аспекте особую значимость имеет Указ Президента Узбекистана от 14 июня 2022 года «О мерах по внедрению системы повышения и оценки уровня открытости деятельности государственных органов и организаций».

В соответствии с Указом образована Комиссия по оценке эффективности и результативности проводимой работы в сфере обеспечения открытости при Агентстве по противодействию коррупции. Комиссия, являясь коллегиальным органом, принимает окончательное решение по подсчету Индекса открытости на основе результатов мониторинга и оценки открытости деятельности госорганов и организаций, формируемый координационным органом.

Индекс открытости деятельности государственных органов и организаций оценивается по соответствующим восьми индикаторам, каждая из которых ограничена оценочными критериями и баллами.

Порядок подсчета Индекса открытости осуществляется на основе методики мониторинга и оценки открытости деятельности госорганов и организаций. К примеру, критериями оценки 1-го индикатора «эффективность деятельности работников, ответственных за обеспечение открытости в государственных органах и организациях», для которого выделено 10 баллов, являются количество пресс-конференций, брифингов, пресс-туров, презентаций, онлайн-трансляций, участие в них руководителей, форма представления и охват информации и т. д.

Индекс открытости разделяется на «красную», «желтую» и «зеленую» категории, оцениваемые от «0» до «100» баллов. Итоговый балл определяется путем сложения баллов индикаторов. Соответственно, в зависимости от количества индикаторов, определяющих уровень открытости деятельности госорганов и организаций, рейтинговые баллы разделяются на категории: от 71 балла до 100 баллов – «зеленый»; от 55 баллов до 71 балла – «желтый»; менее 55 баллов – «красный». Если деятельность государственного органа и организации отнесена к «зеленой» категории, реализовываются меры по популяризации в средствах массовой информации положительного опыта в сфере обеспечения открытости, в случае отнесения деятельности к «красной» категории – вносится предложение о применении мер дисциплинарного наказания к ответственным работникам госорганов и организаций.

Открытость и прозрачность деятельности государственных органов и организаций обеспечивается также Кодексом Республики Узбекистан об административной ответственности. **Законом установлена ответственность за нарушение законодательства об открытости деятельности органов государственной власти и управления** (ст. 215⁷ КоАО). Ответственность наступает в случаях нарушения законодательства об открытости деятельности органов государственной власти и управления (за исключением случаев, предусмотренных ст. ст. 175⁷ и 229 КоАО), в частности, неопубликования или неполного опубликования сведений, внесенных в Перечень социально значимых сведений, подлежащих размещению в качестве открытых данных, несоблюдения сроков и порядка публикации или искажения данных.

Резюмируя, можно сделать вывод, что имеющаяся нормативно-правовая база служит обеспечению принципа открытости и прозрачности в деятельности государственных органов и организаций, эффективному предупреждению коррупционных проявлений.



Рафик ШАКУРОВ, родился в 1967 году в городе Каттакуртане Самаркандской области.

В 1993 году окончил Высшую школу МВД Республики Узбекистан. До 2011 года осуществлял научно-педагогическую деятельность в Академии МВД Узбекистана, подполковник в отставке. С 2012 года являлся доцентом Ташкентского государственного университета востоковедения. С 2018 года – доцент кафедры развития профессиональных навыков Центра повышения квалификации юристов при Министерстве юстиции Республики Узбекистан.

Кандидат юридических наук, доцент. Автор монографии, 16 учебных и учебно-практических пособий, свыше ста научных статей.



Юқори Чирчиқ тумани ИИБда

ЁШ БЎЛСА-ДА, КЎПЧИЛИККА ИБРАТ



Ички ишлар органларида бошқаларга намуна бўлаётган фидойи ходимлар кўпчиликини ташкил этади. Юқори Чирчиқ туманининг «Ўзбекистон» маҳалла фуқаролар йиғини осойишталигига масъул профилактика инспектори, катта лейтенант Аббосхон Абборхўжаев ана шундай ёш ва умидли ходимлардан бири.

2019 йилда Ўзбекистон давлат жисмоний тарбия ва спорт университетини муваффақиятли тамомлагач, туманининг «Маърифат» маҳалласида профилактика инспектори лавозимида иш бошлаган Аббосхон тез орада ўзининг билими, интилувчанлиги, тартиб-интизомга риоя этиши ва жамоат ишларидаги фаоллиги билан ҳамкасбларининг ҳурматини қозонди.

«Ўзбекистон» маҳалла фуқаролар йиғинида ҳозирги пайтда 2634 нафар ўзбек, қозок, корейс, татар, тожик, рус ва бошқа миллат вакиллари аҳил-иноқликда истиқомат қилиб келади.

Катта лейтенант А.Аббосхўжаевнинг бошқа ташкилотлар ҳамкорлигида ҳудуд осойишталигини таъминлаш мақсадида олиб бораётган саъй-ҳаракатлари натижасида сўнгги йилларда маҳаллада жиноят содир этилмади. Натижада маҳалла «яшил ҳудуд» тоифасига киритилди.

Бундан ташқари, ҳуқуқ-тартибот органлари ходимлари ўртасида ўтказиладиган қўл жанги мусобақаларида муваффақиятли иштирок этиб, туман ички ишлар органлари шахсий таркибига ҳафтада икки кун бўладиган жисмоний машғулотларда қўл жанги усулларида сабоқ бериб келмоқда.


ХОТИРЖАМЛИККА АСОС БЎЛМАЙДИ

Кейинги йилларда мамлакатимизда хотин-қизларнинг ҳақ-ҳуқуқлари, қонуний манфаатларини ҳимоя қилиш, улар ўртасида жиноят ва ҳуқуқбузарликларнинг олдини олиш борасида кенг қамровли ишлар амалга оширилмоқда.

– Опа-сингилларимиз юзма-юз мулоқотда ҳеч кимга айтолмаган дардлари билан ўртоқлашаётгани, муаммоларига ечим топаётгани кўнгилга илиқлик бахш этади, – дейди туман ИИБ ҚПБ хотин-қизлар масалалари бўйича катта инспектор, подполковник Улжана Жумадуллаева. – Бу жараёнда биз шунчаки кўнгил сўраш билан чекланмай, уларнинг ечимини кутаётган муаммоларини ўрганиб,

жамоат ташкилотлари ҳамкорлигида ҳал этилишига имкон қадар ҳаракат қиляпмиз.

Олиб борилган профилактик суҳбатлар натижасида жорий йилнинг ўтган даврида тазйиқ ва зўравонликка учраган 136 нафар аёлга ҳимоя ордерлари берилди. Бундан ташқари, ҳамкор ташкилотлар мутасаддилари иштирокида турли сабабларга кўра ажрим ёқасига келиб қолган 68 та оила ўрганиб чиқилди. Натижада 52 та оила яраштирилди. Шунингдек, ҳар хил муаммоли вазиятларга дуч келиб, сарсон бўлиб юрган 238 нафар аёл билан учрашувлар ташкил этилиб, уларнинг дардлари тингланди. Зарур ҳуқуқий тушунчалар берилди.



БАРЧАСИ АҲОЛИ ФАРОВОНЛИГИ УЧУН

Туман 3-сектори таркибига 12 та маҳалла фуқаролар йиғини киради. Аҳоли 37 мингдан ортиқ турли миллат вакиллари билан иборат. Жорий йил бошида меҳнатга лаёқатли ишсиз фуқаролар 1264 нафарни ташкил этади. Шундан 438 нафари доимий, 234 нафари жамоат, 346 нафари мавсумий ишларга жойлаштирилди. Ҳозирги кунда ҳокимият ва бошқа мутасадди ташкилотлар масъуллари ҳамкорлигида 288 нафар фуқарони доимий иш билан таъминлаш чоралари кўриляпти.

Айтиш лозимки, бу йил сектор ҳудудида такрорий экинлар учун ер майдонлари ажратилди. Фуқароларнинг турмуш тарзини яхшилаш, ишсизликнинг олдини олиш мақсадида ажратилган ушбу ер майдонларининг 0,5 гектари «Темир дафтар», 11,3 гектари «Ёшлар дафтари» рўй-ҳатида киритилганларга, 40 гектари эса ишсиз аҳолига берилди.

Сектор ҳудудидаги «Темир дафтар»га киритилган 599 та оилага 1,9 млрд сўмлик пул маблағи, 8 млн сўмлик дори-дармон, 378 млн сўмлик озиқ-овқат маҳсулотлари, 242 млн сўмлик қурилиш материаллари берилди ва ушбу оилаларнинг 626 нафар аъзосининг бандлиги таъминланишига эришилди.



«Ёшлар дафтари»га киритилган 206 нафар ёшлардан 84 нафарига бир марталик моддий ёрдам, 39 нафарига тўлов-контракт пуллари, 16 нафарига ҳарбий хизмат учун, 3 нафарига ҳайдовчилик гувоҳнома-си ва 32 нафарига асбоб-ускуналар учун 894 млн сўм маблағ ажратилди. Бундан ташқари, ёшларнинг 62 нафари касб-ҳунарга ўқитилган бўлса, 134 нафарига 72 гектар ер ажратиб берилди.

Хотин-қизлар соғлигини муҳофаза қилиш, уларни иш билан таъминлаш мақсадида ижтимоий ҳимояга муҳтож, ишсиз, тадбиркорлик қилиш истагида бўлган,

уй-жойга эҳтиёжманд, қарамоғида ногирон фарзанди бўлган аёлларга 326,4 млн сўмлик моддий ёрдам берилди. Бундан ташқари, 10 нафар аёлга «Ҳар бир оила – тадбиркор» дастури асосида 332,5 млн сўмлик кредит ажратилди.

Ютуқ бор жойда камчилик ҳам бўлади, албатта. «Нурафшон» маҳалласида бугунги кунда 438 та хонадон аҳли ичимлик суви танқислигидан азият чекади. Маҳалланинг 5,5 км масофадаги Меҳнатобод,

Турон, Она замин, Тўрткўл ҳамда Ёшларобод кўчаларига қувурлар ётқизиблиб, аҳолини тоза ичимлик суви билан таъминлаш ишлари амалга оширилди.

Туман ИИБ бошлиғи, сектор раҳбари, подполковник Абдулазиз Муллажанов ташаббуси билан «Истиқбол» маҳалласида тадбиркорлик билан шуғулланиш истагида бўлган Гулмира Мансуровага паррандачилик фаолиятини йўлга қўйиш бўйича кредит олишига ёрдам кўрсатилган эди. Ҳозирда у маҳалладаги 10 та хонадонда 50 та иш ўрни барпо этди.

Сектор раҳбарининг бевосита ташаббуси билан таъмирталаб ички кўчаларни шағаллаштириш ҳамда асфальтлаш ишлари ҳам уюшқоқлик билан босқичма-босқич олиб бориляпти. Бундан ташқари, ҳудудда ободонлаштириш ишлари, ёшларнинг бўш вақтини мазмунли ташкил этишга қаратилган тадбирлар ҳам эътибордан четда қолмаётгани одамларнинг эртанги кунга бўлган ишончини оширмоқда. Бу, ўз навбатида, жиноят ва ҳуқуқбузарликларнинг олдини олишда муҳим аҳамият касб этаётир.

Саҳифа материалларини Шерзод АБДУСАМАДОВ ва Икром ҲАСАНОВ (суратлар) тайёрлади.





Мулоҳаза

Табиатни асраш, атроф-муҳит тозалигини таъминлаш ҳақида сўз борса, доим бир воқеа ёдимга тушади. Хизмат юзасидан ҳудуддаги ташкилот раҳбари билан Фаллаорол туманига борадиган бўлдик. Йўлда биздан сал илгарироқда ҳаракатланаётган автоулов ойнасидан кимдир бўшаган сув идишини отиб юборди.

Шу ҳодиса сабаб ҳамроҳим одамларнинг табиатга аёвсиз муносабатда бўлаётгани, ҳудуддан оқадиган Сангзор дарёсидан бетўхтов қум қовлаши натижасида ўзан тобора чуқурлашиб бораётгани, бир йили паррандачилик фермасининг чиқинди суви ҳам Сангзорга оқизилганини куюниб гапирди. Кейин Жиззах шаҳрини Фаллаорол тумани билан боғловчи йўл ёқасидаги тоғ қоялариға исмлирини ёзишдан тортинмайдиган бефаросатлардан нолиди.

Яқинда бир ҳайдовчини жазолаганини ҳам сўзлаб берди. Маълум бўлишича, у «Нексия» эгаси автомашинасидан чиқинди улоқтирган, у бўлса ҳайдовчини тўхтатган ва автоуловидаги видеорегистраторда қои-

дабузарнинг хатти-ҳаракатлари акс этганлигини айтиб, чиқиндини йиғиштириб олишга мажбур қилган. Қаршимда табиатнинг ҳақиқий жонкуяри тургандек эди.

Аммо раҳбар чекишга тутинганида адашганлигимни тушундим. Чунки сигаретасини оғзига қўндириш асносида бўшаган тамаки қутисини ғижимлаб, ойнадан улоқтирди. Очиғи, нима дейишни билмасдим, ўзимни ноқулай ҳис қилдим. Йўлдошим буни сезмади ҳам.

Назаримда, айна шу ёндашув табиатнинг ғорат этилишига сабаб бўлаётир. Яъни, сўзимиз амалимизга мос келмайди, ноҳўя ишга қўл урганларга бефарқмиз, жим кузатамиз, шу қулайроқ. Акс ҳолда, ҳамма жойда сув идишлари, қоғоз қолдиқлари, писта пўчоқларига кўзимиз тушмасди. Аксинча бўлганида, ариқларга чиқинди тўқилмасди, экологларнинг қўлига тушиб қолмаслик учун ой ёруғида дарахтларни кесиб ташлаб, қурилишларга майдонлар очилмаган бўларди.

Айримларнинг ёввойи завқи ҳамда нафси учун ҳайвонлар ва қўшлар овланаётганлиги, ўсимлик дунёси барбод қилинаётгани ҳам бор гап. Баъзиларнинг корхонасидан чиққан тутуну заҳарли моддалар теварак-атрофга бемисл зарар етказётгани ҳам инкор қилиб бўлмас маълумот.

ТАБИАТНИНГ ҲАҚИҚИЙ ЖОНКУЯРИ БЎЛАЙЛИК



Рассом: Осимхон ВОСИХОНОВ.

Оқибатда иқлим ўзгаряпти, инсон яшаши учун қулай бўлган ҳудуд ва минтақалар тораймоқда. Шундан бўлса керак, табиат муҳофазаси муҳокамаларимизнинг бош мавзуга айланди. Бундай пайтларда кимдир қадриятларга таяниш кераклигини уқтириб, яқин-яқингача аждоқларимиз тириклик дунёсига ўта эҳтиёткорлик билан муносабатда бўлганлигини эсга олади. Бошқа биров эса жарима ва жазолар иш беришини билдиради.

Бинобарин, танишларимдан бири Сингапурда мукамал тозалик таъминланишига катта миқдордаги жарима ва жазолар сабаб эканлигини айтиб қолди. Жумладан, кўчага тамаки қолдиғи ёки чиқинди ташлаган мамлакат фуқароси ёки сайёҳ 1000 Сингапур доллари (1 Сингапур доллари 0,74 АҚШ долларига тенг) миқдорида жарима тўлар экан. Агар мазкур қонунбузарликни қайта содир этсангиз, эгингизга «Мен қўқитдим» ёзувли тўқ сариқ футболка кийиб, кўча тозалашга мажбур бўласиз.

Бу мамлакатда қўшларни озиклантириш мумкин эмас. Чунки қанотлиларнинг бир жойга тўпланишига тозаликка таҳдид сифатида

қаралади. Бундай қоидабузарлик учун 500 Сингапур долларидан воз кечишга тўғри келади. Қолаверса, 1992 йилдан буён сақичга тақиқ мавжуд. Табиийки, бундай чеклов сақични кўчага туфлаш ёки бекат ва автобус ўриндиғига ёпиштиришлар оқибатида юзага келган.

Қисқаси, Сингапурда сақични фақат дорихонадан топа оласиз. Уни ҳам шифокор тавсияси билан даво мақсадида беришади. Агарда сақични сотиш учун мамлакатга олиб кирсангиз 5500 Сингапур доллари жаримаси ёки 1 йил озодликдан маҳрум этиш жазоси қоллатилган. Агар чўнтагингиздан сақич топиб олишса, мингингизни бой беришингиз аниқ.

Ушбу маълумотларни эшитар эканман, хаёлимдан табиат қўйнига дам олишга бориб, ўзидан бир арава полиэтилен ва шиша идишлар, қоғоз, озиқ-овқат қолдиқлари ташлаб кетадиганлар кўз олдимга келди. Бу ҳам етмаганидек баъзилар бўлар-бўлмас жойга, хусусан дарахт пўстлоғини ўйиб, ўзидан ёқимсиз из қолдириш касалига чалинган. Назаримда, сингапурча жарималар шундай пайтларда қўл келади.

Шу ўринда Ўзбекистон Республикасининг Маъмурий жавобгарлик тўғрисидаги кодексида маиший ва қурилиш чиқиндиларини

белгиланмаган жойларга ташлаш жисмоний шахсга базавий ҳисоблаш миқдорининг 3 бараваридан 5 бараваригача, мансабдор шахсларга эса 10 бараваридан 20 бараваригача жарима қўлланишига сабаб бўлиши кўрсатилганлигини эслатиб ўтмоқчимиз.

Ўзбекистон Республикасининг Жиноят кодексида эса экология соҳасига оид қонунбузарликларга нисбатан йирик миқдорда жарима жазосидан тортиб, озодликдан маҳрум қилишгача бўлган жазолар белгиланганлигини унутмаслик керак. Фикримизча, масалага жаримадан кўрқиб эмас, балки виждон нуқтаи назардан ёндашсак тўғри бўларди. Чунки табиатни озорламоққа ниятланган ҳар бир касга биттадан кўриқчи қўйиб бўлмайди. Қани энди табиатга зарар етказиш, уни булғаш орқали нафақат ўз ҳаётимиз, балки келажак авлодларни экологик таҳдидлар остида қолдираётганлигимизни англай оласак.

Балки бу йўналишда ҳаракатларни оилада, мактабда болаларга тўғри тарбия беришдан, уларни атроф-муҳитга муҳаббат уйғотишдан, тозаликка оид маданиятни сингдиришдан бошламоқ керакдир. Хуллас, бир дўстим айтмоқчи: «Биз ҳам бир орзу қилдик-да». Айрим орзуларнинг ушалиши мумкинлигини инобатга олган ҳолда ҳаммаси яхши бўлишига умид қилиб қоламиз.

Асосийси, табиатга зарар етказиш, орқали нафақат ўз ҳаётимиз, балки келажак авлодларни экологик таҳдидлар остида қолдираётганлигимизни бир лаҳза ёдимиздан чиқармаслигимиз зарур. Бу йўналишда ҳаракатлар эса оилада, мактабда болаларга тўғри тарбия беришдан, уларни атроф-муҳитга муҳаббат уйғотишдан, тозаликка оид маданиятни сингдиришдан бошланади. Натижада ҳар бир инсон табиат ҳимоясига отланади, тозаликка ўзини масъул ҳисоблайди, жамоатчиликнинг фаол назорати ўрнатилади.

Алижон АБДУСАТТОРОВ,
«Postda» мухбири.

Жиззах вилояти.





Жены офицеров

40 ЛЕТ В СЧАСТЛИВОМ БРАКЕ

Офицеры были и остаются примером мужества, чести и доблести. Рассказывая о них, мы часто незаслуженно забываем тех, кто скромно стоит за их спиной, – офицерских жен. Они всегда собраны, имея в характере особый стержень, найдут верное решение в любой критической ситуации. Выходя замуж за человека в офицерской форме, женщина обретает особый, обязывающий статус.

В нашей газете мы решили ввести новую рубрику, посвященную женщинам с особым статусом – женам офицеров.

Есть такая профессия – Родину защищать. Но есть и профессия – любить и ждать того, кто Родину бережет. За спиной каждого сотрудника органов внутренних дел зачастую стоят сильные духом женщины. Жены офицеров становятся надежным тылом для супругов.

Ойсулув и Бахтиёр Буксинбаевы прожили в счастливом браке 40 лет. Каждый год 5 июня они отмечают важную дату – день их свадьбы. Бахтиёр Сансизбаевич на протяжении долгих лет выполнял свой долг, служа закону и народу. Занимая ответственные посты в структуре МВД Республики Узбекистан, он сохранял и приумножал традиции честной самоотверженной службы и верности присяге.

Каждая женщина, выходя замуж, мечтает о хорошей, прекрасной семье, жить с супругом в мире и согласии. Об этом мечтала и Ойсулув Буксинбаева. При этом она понимала: ее суженый – человек при погонах, что обязывает к особой ответственности.

Красивая, умная, скромная Ойсулув всегда старалась



соответствовать статусу супруги офицера. По ее мнению, секрет счастливого брака заключается в том, чтобы с пониманием относиться к служебной загруженности мужа, взять на себя многое из того, что жена гражданского человека, как говорится, «не потянет».

– Каждая супруга офицера уникальна, с разными жизненными историями. Но все мы – олицетворение теплого домашнего очага. Муж приходит со службы уставший, иногда сердитый, а ты его выслушаешь, поддержишь – и мир в его душе восстанавливается. Жена офицера – надежный любящий тыл, – делится О. Буксинбаева.

Героиня нашего очерка была на редкость любознательной и начитанной девушкой, в ней органично сплелись такие качества, как интеллигентность, высокая духовность. Заслуживает признания и ее трудовая биография. Ойсулув Буксинбаева педагог с многолетним стажем. На протяжении лет работала учительницей, 20 лет являлась дирек-

тором общеобразовательной школы. В настоящее время вносит вклад в воспитание детей в качестве руководителя образовательного центра «The Smart Nation».

Несмотря на колоссальную занятость, успевала реализовываться, заниматься творчеством. Она член Союза писателей Узбекистана, писатель-прозаик, автор нескольких книг. В своих произведениях пишет о роли женщин в обществе, о дружбе, любви, описывает поучительные события, стремится помочь читателям посмотреть на мир добрым взглядом, с раскрытым сердцем.

Бахтиёр и Ойсулув Буксинбаевы создали счастливую семью, воспитали четверых детей, подрастают десятеро внуков, которые берут пример со старших. Пользуясь случаем, поздравляем их с очередной годовщиной свадьбы. Желаем здоровья, благополучия, еще многих лет счастливой совместной жизни!

Соб. корр.



Ступени успеха

ЧТО У НАС СЕГОДНЯ ВКУСНЕНЬКОГО?

Что ни говори, хозяевами на кухне чаще всего бывают женщины, которые, приложив весь свой талант и мастерство, доставшиеся от матерей и свекровей, стараются порадовать нас чем-нибудь изысканным и необычным. Однако при этом на Востоке все же лучшими поварами считаются мужчины. Кто хоть единожды побывал на нашей хлебосольной земле, в этом убедился с лихвой. Кулинария – поистине искусство, а те, кто им владеет, – настоящие мастера!

Герой нашего очерка, начальник столовой батальона материально-технического обеспечения войсковой части № 7534 Караульных войск МВД Республики Узбекистан младший сержант Даврон Сайидов, родом из Сырдарьинской области. В детстве, как и многие сверстники, увлекался спортом, с азартом гонял по зеленому полю футбольный мяч. Но пришло время взросления и он, окончив общеобразовательную школу, отправился на срочную армейскую службу, которая проходила в Караульных войсках. Служил Даврон образцово, подавая пример товарищам, при этом еще и блистал кулинарным мастерством.

Отдав долг Родине, Даврон Сайидов вернулся домой и вскоре осознал, что хочет связать свою жизнь с воинским делом.

В 2010 году его приняли на должность старшего повара в батальон материально-технического обслуживания войсковой части № 7534. В 2020 году его назначили начальником столовой.

– Конечно, есть возможность готовить изысканные и сложные блюда, но наши сотрудники предпочитают простую домашнюю пищу: супы, котлеты, гарниры, подливки. Как кулинар стараюсь обращать внимание на то, что пользуется спросом. Что-то убираю из меню, чем-то дополняю, стараясь всегда его разнообразить.

Пообщавшись с героем очерка, можно сказать: он специалист высокого уровня. Истинный маэстро кухни Даврон Сайидов умело руководит, показывает пример сослуживцам, постоянно расширяет кулинарный кру-



гозор, осваивает гастрономические традиции разных стран и национальных кухонь. В работу всегда вкладывает частичку душевного тепла. Руководство и личный состав части ценят мастерство и талант Д. Сайидова.

– Когда коллеги доверяют, возникает обратная

связь в виде готовности трудиться еще лучше. Однозначно, если еда приготовлена вкусно, она приносит благо всем, – говорит Д. Сайидов. – Приятно заниматься достойной профессией, которая тебе и впрямь по душе.

С супругой Камуной наш



герой воспитывает двух дочерей – Нозимахон и Маржону. Девочки еще маленькие, с нетерпением ждут папу дома, чтобы обнять его и расцеловать.

Когда любишь свое дело – это достойно похвалы и уважения. Но если профессию ты превращаешь в настоящее искусство – это замечательно!

Азиза БОХОДИРОВА,
капитан.



Biz zo'rvonlikka qarshimiz

XOTIN-QIZLAR HUQUQIGA BAG'ISHLANDI

- Urganch shahridagi «Ishga marhamat» monomarkazi-da «Xotin-qizlarga nisbatan zo'rvonlikning oldini olish va ijtimoiy reabilitatsiya qilish ishlarini muvofiqlashtirish» mavzusida seminar-trening o'tkazildi.

Unda viloyat ichki ishlar organlarining xotin-qizlar masalalari bo'yicha katta inspektorlari, viloyat hokimligining Oila va xotin-qizlar boshqarmasi, Ijtimoiy moslashuv markazi mas'ul xodimlari hamda huquqshunos va psixologlar ishtirok etishdi.

Seminar-treningda Ayollarni reabilitatsiya qilish va moslashtirish respublika markazining viloyat hududiy bo'limi boshlig'i N. Qo'shchayeva, Respublika reabilitatsiya qilish va moslashtirish markazi xodimi



D. Shodiyeva, viloyat IIB JXX HPB boshlig'ining xotin-qizlar masalalari bo'yicha o'rinbosari, kapitan S. Xudoyberganova, «Dialog» nodavlat notijorat tashkiloti koordinatori M. Bekmirzayev, viloyat oila va xotin-qizlar qo'mitasi bo'lim bosh-

lig'i M. Otajonova, trener-ekspert D. To'xtasinovalar so'zga chiqib, gender tenglikni ta'minlash borasida amalga oshirilayotgan sa'y-harakatlar, xotin-qizlar huquqlari kafolatlarining qonunchilik mezonlari, ularning teng huquqliligini ta'minlash, har

qanday ko'rinishdagi zo'rvonlikning oldini olish borasida amalga oshirilayotgan ishlarga to'xtalib o'tishdi.

– Ayollar bilan bog'liq muammolarni qancha erta aniqlab, bartaraf etish choralari ko'rsak, jamiyatimizda sodir bo'lishi mumkin bo'lgan noxush holatlarning, turli huquqbuzarliklarning barvaqt oldini olgan bo'lamiz, – deydi viloyat IIB JXX HPB boshlig'ining o'rinbosari, kapitan Sevara Xudoyberganova. – Mazkur seminar-treningda aynan shu masalalar ochiq va oshkora tahlil qilindi. Turli takliflar, fikrlar bildirildi.

Ochiq muloqot tarzida o'tgan seminar-treningda barcha ishtirokchilarga loyiha maqsadi va vazifalarini targ'ib qiluvchi materiallar tarqatildi.

Xudoybergan JABBOROV,
«Postda» muxbiri.

Xorazm viloyati.

«Yashil chiroq»

HAYAJONLI DAQIQALAR, MUROSASIZ KURASH

Farg'ona viloyati



Joriy yilning 30-may kuni Ichki ishlar vaziri o'rinbosari general-mayor Bekmurod Abdullayev boshchiligidagi ishchi guruh Farg'ona viloyatiga tashrif buyurdi.

Vazir o'rinbosari tashrif davomida Farg'ona shahridagi 5-sonli umumta'lim maktabida tashkil etilgan «Yashil chiroq – 2023» musobaqasining viloyat bosqichining ochilishida ishtirok etib, tuman bosqichlarida g'oliblikni qo'lga kiritib kelgan yoshlarni qutladi.

Tadbir bunday musobaqalarning tashkil etilishi bolalar ishtirokidagi yo'l-transport hodisalarining oldini olish bilan birga, o'quvchilarda yo'llarda harakatlanish qoidalariga amal qilishlarida ham muhim o'rin tutishi alohida ta'kidlandi.

An'anaviy musobaqa bolalarda mustaqil fikrlash, tezkor harakat qilish, aniq va to'g'ri qarorlar qabul qilish kabi xususiyatlarni shakllantirishi bilan ham ahamiyatlidir. Musobaqa ishtirokchilari sonining ko'payotgani uning nufuzi yildan yilga oshib borayotganidan dalolatdir.

Namangan viloyati

Norin tumanidagi 42-sonli maktabda «Yashil chiroq» musobaqasining viloyat bosqichi o'tkazildi. Musobaqada Uychi, Uchqo'rg'on va Norin tumanlari jamoalari g'oliblik uchun kurash olib bordilar.

Musobaqalarda ishtirokchilar safda yurish, tartibga soluvchi signallarini ko'rsatish, maket yasash, birinchi tibbiy yordam ko'rsatish, yo'l harakati qoidalari bo'yicha bilimlarini sinovdan o'tkazdilar.

Yakunda Norin tumanining «Targ'ibot» jamoasi faxrli 1-o'rinni egallab, musobaqaning respublika bosqichiga yo'llanmani qo'lga kiritdi.



Navoiy viloyati



«Yashil chiroq» musobaqasi bolalarning ko'cha va yo'llarda harakatlanish madaniyatini shakllantirib, «Yo'l harakati qoidalari» borasidagi bilim va ko'nikmalarini oshirishga xizmat qiladi.

Hayajonli daqiqalar, murosasiz kurash, qiziqarli voqealarga boy bo'lgan ushbu musobaqaning Navoiy viloyati bosqichi bu yil har galgidan ham qizg'in ruhda o'tdi. Unda 100 ga yaqin 11–14 yoshdagi maktab o'quvchilari ishtirok etdi.

Karmana tumanidagi «Oftobjon» oromgohida bo'lib o'tgan musobaqada jamoalarning safda yurish tayyorgarligi, piyodalarning vazifalari va harakatiga oid sinov hamda yosh velosipedchilar bellashuvlari bo'yicha o'quvchilarning bilim va ko'nikmalari sinovdan o'tkazildi.

Shundan so'ng ishtirokchilar «Yosh tartibga soluvchi», «Guruh sardorlari bellashuvi», «Choraha maketini yasash», «Birinchi tibbiy yordam ko'rsatish», «Texnika ijodiyoti» shartlari bo'yicha bilimlarini namoyish etishdi.

Tadbir yakunida Navoiy shahrining 18-umumta'lim maktabi jamoasiga 3-o'rin, Qiziltepa tumanining 5-umumta'lim maktabi jamoasiga 2-o'rin nasib etdi. Karmana tumanining 9-umumta'lim maktabi jamoasi esa mutlaq g'olib deb topilib, musobaqaning respublika bosqichiga yo'llanmani qo'lga kiritdi. Shuningdek, «Eng mohir velosipedchi», «Eng yaxshi tartibga soluvchi» hamda «Yo'l harakati qoidalari bilimdoni» nominatsiyalari bo'yicha ham g'oliblar aniqlanib, rag'batlantirildi.



Ma'naviyat va ma'rifat darsi

OCHIQLIK — KORRUPSIYANING OLDINI OLISHDAGI MUHIM VOSITA

Jamiyat yangilanish, evrilish pallasida ijtimoiy-siyosiy, madaniy-ma'rifiy hayotida yuz berayotgan o'zgarishlardan, qabul qilinayotgan qarorlar, yaqin-kelgusi uchun mo'ljallanayotgan ijtimoiy dasturlar, ularning maqsad-mohiyatidan yurtdoshlarimiz o'z vaqtida xabardor bo'lishi zarur. Bunday xabardorlik, birinchi navbatda, ularning ijtimoiy pozitsiyasiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi, mamlakat oldida turgan muhim vazifalarni hal etishda yanada faol ishtirok etishga undaydi.

So'nggi yillarda ushbu maqsadlarga erishish borasida samarali ishlar qilindi. Xususan, korrupsiyaga qarshi kurashishda ochiqlik, hisobdorlik va halollik mexanizmlarini takomillashtirish va rivojlantirishda ishtirok etish, shuningdek, davlat organlari va tadbirkorlar faoliyatining shaffofligi, hisobdorligi, halolligi va haqqoniyligini ta'minlashda jamoatchilik nazoratini joriy etish maqsadida «O'zbekistonda ochiqlik va shaffoflik» tahlil markazi tashkil etilgani fikrimizning yaqqol dalilidir.

E'tiborlisi, korrupsiyaga qarshi kurashish va uning oldini olish masalalarida tahlil va tadqiqotlar olib boradigan ushbu nodavlat notijorat tashkilot o'z faoliyatini oshkoralik, kollegiallik, o'zaro hurmat, teng huquqlilik, ixtiyoriylik tamoyillari asosida olib boradi. Negaki, mamlakat hayotida yuz berayotgan o'zgarishlarni odamlar o'z vaqtida bilishi, davlat organlari va tashkilotlari faoliyati esa ochiqlik, shaffoflik asosida jamoatchilik nazoratida bo'lishi jamiyat taraqqiyoti uchun o'ta muhim. Bu — demokratiya mezoni hisoblanadi va birinchi navbatda, fuqarolarning ijtimoiy-siyosiy faolligiga, tashabbuskorligiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Aytish mumkinki, «**Davlat organlari va tashkilotlarining faoliyati ochiqligini ta'minlash, shuningdek, jamoatchilik nazoratini samarali amalga oshirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida**»gi Prezident farmoni bilan bu borada zalvorli o'zgarishlarning huquqiy poydevori qo'yildi. Tan olish kerak, mamlakatimizda davlat hokimiyati ochiqligi siyosati amal qila boshlagan sari yashirin iqtisodiyot birmuncha qisqarib, iqtisodiy barqarorlik ta'minlana boshladi.

Ochiqlik va oshkoralik yo'lidagi qat'iy qadamlar poraxo'rlik, tanish-bilishchilik, tamagirlik kabi illatlarning payini qirqadi. Endilikda jamiyatda ochiqlikni ta'minlashda jamoatchilik nazoratini kuchaytirishni ham davrning o'zi taqozo etmoqda. Farmonda davlat organlari va tashkilotlari faoliyatining ochiqligi va shaffofligini, axborot olish erkinligini ta'minlash orqali jamoatchilik nazoratini takomillashtirish masalalariga

katta e'tibor qaratilgan.

Yana bir muhim jihat shundan iboratki, yurtimiz iqtisodiy yuksalishi, taraqqiyotini tahlil qilish va boshqa xorijiy davlatlar bilan

Ochiqlik va oshkoralik yo'lidagi qat'iy qadamlar poraxo'rlik, tanish-bilishchilik, tamagirlik kabi illatlarning payini qirqadi.



qiyoslash imkoniyati paydo bo'ladi. Bu esa turli ijtimoiy tarmoqlardagi fisq-u fashlarga, asossiz ta'na-dashnomlarning kamayishiga, eng muhimi, ayrim amaldorlarning davlat mablag'ini o'marishiga kuchli chora bo'ladi.

Shu sababli farmonda mansabdor shaxslarning xizmat safarlari va xorijdan tashrif buyurgan mehmonlarni kutib olish xarajatlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti, Vazirlar Mahkamasi hujjatlari bilan soliq va bojxona imtiyozlari hamda preferensiyalar, shu jumladan, individual imtiyozlar berilgan subyektlarning benefitsiarlari ular tomonidan to'langan soliqlar va moliyaviy ko'rsatkichlar haqidagi ma'lumot-

larni O'zbekiston Respublikasining Ochiq ma'lumotlar portaliga va o'z rasmiy veb-saytlariga joylashtirib, ularni har chorakda yangilab borish belgilandi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Oliy Majlisga Murojaatnomasida bundan buyon barcha davlat xaridlari jamoatchilik va Parlament nazoratida bo'ladi, tashqi qarz hisobidan hududlarda amalga oshiriladigan loyihalar bundan buyon mahalliy kengashlar va jamoatchilik muhokamasidan o'tkaziladi, deb ta'kidladi. Shuningdek, qabul qilingan hujjatlar

huzurida Jamoatchilik kengashlari o'z faoliyatini boshladi. Davlat idoralari faoliyatida shaffoflik va hisobdorlikni rivojlantirishdan birinchi galda jamoatchilikning o'zi manfaatdor hisoblanadi. Shunday ekan, davlat organlarida ochiqlik va oshkoralikni hamda ularning xalq oldidagi hisobdorlikni ta'minlashda fuqarolik jamiyati institutlari faol pozitsiyada bo'lishi kerak. Ularning ishtirokisiz, aniqrog'i, faol ishtirokisiz haqqoniy ochiqlik va oshkoralikni ta'minlab bo'lmaydi.

Davlatimiz rahbari aytganidek, «**Jamiyatimiz hayotining barcha jabhalarini erkinlashtirish, so'z va matbuot erkinligi, ochiqlik va oshkoralik tamoyillarini chuqur qaror toptirish, davlat hokimiyati idoralari faoliyati ustidan samarali jamoatchilik nazoratini o'rnatish bo'yicha boshlagan ishlarimiz ortga qaytmas tus olmoqda**».

Bir haqiqatni hammamiz ham tan olishimiz kerakki, jamiyat uzoq vaqt korrupsiya muammosini muhokama qilmaslikka intildi. Davlatimiz rahbarining korrupsiyaga qarshi kurashishga siyosiy irodasini namoyish etishi davlat va mahalliy hokimiyat organlari faoliyatining ochiqligi hamda oshkoraligi oshishiga ijobiy ta'sir ko'rsatdi.

Axborotning ochiqligi korrupsiyaga qarshi kurashishda asosiy omil hisoblanadi, chunki mass-media jamiyat ongiga katta ta'sir ko'rsatadi va xulq-atvorning barqaror stereotiplarini shakllantiradi. Fikrimcha, OAV nafaqat axborot manbalari sifatida faoliyat ko'rsatishi kerak, balki korrupsiyaga qarshi kurashish tizimining bir qismiga aylanishi va mamlakatning korrupsiyaga qarshi strategiyasini targ'ib qilishda poydevor bo'lishi muhimdir. Shu nuqtai nazardan, ularning vakolatlarini kengaytirish, ommaviy axborot vositalarining davlat hokimiyati va boshqaruvi organlaridan mustaqilligini mustahkamlash, shuningdek, korrupsiyaga qarshi siyosat masalalarida OAV hamda davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari o'rtasidagi hamkorlik usullarini qonunchilik darajasida mustahkamlash zarur.

Xulosa qilib aytganda, bugun mamlakatimizda ochiqlik siyosati, korrupsiyaga qarshi kurashish yo'nalishida uzoqni ko'zlab amalga oshirilayotgan ezgu ishlar xalqimizning roziligini olish, yangi O'zbekistonning mustahkam poydevorini barpo etish va taraqqiyotning yuksak bosqichlariga ko'tarilishimizda muhim zamin bo'ladi.

Temir QURBON tayyorladi.



Международное сотрудничество

ДЕЛЕГАЦИЯ ТАТАРСТАНА В ДЖИЗАКЕ

Делегация Республики Татарстан в составе представителей правоохранительных структур, молодежных организаций, мэрий посетила город Джизак. Первая встреча с гостями была организована с участием хокимов городов и районов, а также руководством УВД области.



Хоким области Эргаш Салиев рассказал о производственных возможностях Джизака, проектах, реализуемых совместно с Россией, мерах, направленных на создание новых рабочих мест, предупреждение нарушений законодательства. В свою очередь глава делегации, руководитель администрации райса Республики Татарстан Асгат Сафаров высказал мнение о потенциале дальнейшего развития взаимовыгодного сотрудничества между двумя регионами.

Для гостей была проведена презентация МСГ «Заргарлик» города Джизака, в ходе которой акцентировано внимание на деятельности по профилактике правонарушений, оказанию по-

мощи гражданам, нуждающимся в социальной поддержке, организации досуга молодежи. Инспектор профилактики лейтенант Анвар Собиров рассказал о формах совместной работы с активом махалли, с лицами, состоящими

на профилактическом учете, порядке работы с включенными в «женскую», «молодежную», «железную» тетради.

– Меня заинтересовала система махалли, то, как вместе работают председатели, инспекторы профилактики, помощники хокимов, лидеры молодежи, женские активистки, – говорит министр внутренних дел по Республике Татарстан генерал-лейтенант полиции Артем Хохорин. – Примечательно, что каждый из них отвечает за профилактику правонарушений и преступлений по своей линии. Заслуживает внимания то, что инспектор профилактики и актив махалли обеспечены современной информационной и

программной базой. Думаю, аналогичный опыт можно внедрить и в Татарстане.

В рамках визита состоялся диалог министра внутренних дел по Республике Татарстан генерал-лейтенанта полиции Артема Хохорина и начальника УВД Джизакской области генерал-майора Гайрата Кадирова.

Гости также ознакомились с условиями, созданными в областном Информационно-библиотечном центре, филиале Казанского федерального университета, приняли участие в церемонии ввода в эксплуатацию крытого бассейна, построенного на территории Центра олимпийской и паралимпийской спортивной подготовки, посетили соревнования чемпионата Азии по борьбе на поясах.

Алижон АБДУСАТТОРОВ,
корреспондент «Postda».
Джизакская область.



Молодежь – наше будущее

ПУСТЬ ДОРОГА БУДЕТ БЕЗОПАСНОЙ

«Ответственный, энергичный и инициативный сотрудник». Так отзываются коллеги об инспекторе 4-го батальона ДПС УБДД ГУВД города Ташкента младшем сержанте Озод Бозорове.

– Залог безопасности на дорогах – знание и неукоснительное соблюдение всеми участниками движения ПДД, взаимное уважительное отношение водителей автотранспортных средств и пешеходов, – отмечает младший сержант О. Бозоров. – Вместе с коллегами, педагогами и добровольными помощниками еженедельно проводим профилактические беседы в школах, колледжах, лицеях, высших образовательных учреждениях и организациях. В дошкольных образовательных организациях на системной основе организуем занятия под девизом «Дисциплина дорожного дви-



жения начинается с детства», в ходе которых рассказываем о безопасном поведении на улице, основных знаках. Цель – предупреждение дорожно-транспортных происшествий.

Помимо прямых профессиональных обязанностей инспектор ДПС активно участвует в подготовке передач «Пойтахт йўлларидан» телеканала «Toshkent» и «No comment» канала «UzReport», в которых освещаются факты ДТП, меры, принимаемые к нарушителям.

Озод Бозоров обучается на втором курсе Ташкентского университета информационных технологий. Несмотря на плотный график работы, младший сержант учится на «отлично».

Бибигуль
МУРТАЗАЕВА.



Tarix tilga kirganda

AMIR NASRULLOHXON, SIZ KIMSIZ?!

Ehtimol, deyarli ikki asr mobaynida saltanat sohibi bo'lgan mang'itlar sulolasining davomchisi, Buxoro amirlarining beshinchisi, kimsan «amir al-mo'minin» Amir Haydarning o'g'li, 33 yil yurt so'ragan aslzodaga bunday murojaat qilish g'ayritabiiy tuyular. Biroq o'sha davr muarrixlari ham, keyingi tarixchilar ham uning umr kitobidagi sahifalarni shunchalar chalkashtirib yuborishganki, Turonzamin tarixida o'ziga xos o'ringa ega bo'lgan bu inson haqidagi asl haqiqatni bilishga har birimiz haqlimiz, deb o'ylayman.

Amir Haydarning o'g'illari

Muarrixlar mas'uliyatini o'z zimmasiga olgan jurnalistlar-u yozuvchilar, adabiyotshunos olimlar-u yana boshqa kasb egalarning goh uchinchi, goh katta o'g'il maqomini berishiga qaramay, tarix zarvaraqlarida Amir Nasrulloxon, Nasrulloh Bahodurxon, Boturxon, «xoni shahid» nomlari bilan zikr etilgan Nasrulloxon 1806-yil 1-iyunda Buxoro shahrida hukmdor oilasida dunyoga kelgan.

Ishonchli manbalarda qayd etilishicha, Amir Haydardan qolgan yetti o'g'ilning ikkinchisi bo'lgan Nasrulloxonni otasi o'n besh yoshlik paytidanoq davlat boshqaruviga faol jalb qilgan. 1821-yil bahorida Miyonqol qo'zg'olonini bostirishda amirzoda Nasrulloh Buxoro qo'shiniga yetakchilik qilgan. Uning botirligi va qattiqqo'lligi natijasi o'laroq, bosib olingan Kattaqo'rg'on ozod etiladi va qo'zg'olonchilar qattiq jazolanadi.

1821-yil kuzidan xon o'g'li Nasrulloh otasi tomonidan Qarshi hokimi etib tayinlanadi.

Amir Haydar vafoti (1826-yil 6-oktabr)dan so'ng taxtga uning to'ng'ich o'g'li Husayn To'ra (Amir Husayn) o'tiradi. Yangi amirning xalqparvarligi, saxiyliigi va boshqa fazilatlariga saroyning ayrim nufuzli amaldorlariga yoqmaydi. Amirlik faoliyati 78 kunga yetganda, u to'satdan vafot etadi.

Undan so'ng Buxoro amirligini boshqargan Amir Umarxon esa davlat ishlarini boshqarishdan bexabar bo'lib, buning ustiga, aysh-ishrat va maishatga berilgan edi. Bundan norozi bo'lgan saroy a'yonlari va amaldorlarining ko'pchiligi Qarshi hokimi bo'lgan Nasrulloxonni

hokimiyat uchun kurashga da'vat etadi.

Nasrullohxon askar tortib kelganida, Amir Umarxon to'plagan qo'shin parokandalikka uchrab, tarqalib ketadi. Umarxonning o'zi esa yashirinishga ulguradi. Nasrullohxon hokimiyatni egallagach, uni badarg'a qiladi. Sobiq amir Mashhad, Balxda yashaydi, so'ngra Qo'qonga kelib, Qo'qon xoni Muhammad Alixon panohida umrguzaronlik qiladi. Qo'qon xoni o'z singlisini Umarxonga nikohlab beradi. Oradan ko'p o'tmay Qo'qonda vabo kasalligi tufayli vafot etadi va jasadi Buxoroga keltirilib dafn etiladi.

Istiqbolni ko'zlagan islohotlar

Mang'it amirlari orasida Buxoro davlatini eng uzoq muddat boshqargan Nasrullohxon o'z hukmronligi davrida islom shariati ko'rsatmalariga amal qilgan. Islom shariatining shartlaridan biri esa inson o'zini ham, tutgan yo'li-yu qilayotgan ishlarini ham doimiy isloh qilib borishdir.

Nasrullohxon yosh bo'lishiga qaramay, amirlikning yirik hududlaridan biri bo'lgan Qarshi viloyatini uzoq yillar boshqargan. 1827-yil bahorida 21 yoshida Buxoro taxtiga o'tirgan Amir mamlakatni idora qilishga kirisharkan, ma'muriy va siyosiy islohotlar o'tkazadi, ichki siyosatda qattiqqo'llik bilan tartib o'rnatishga harakat qiladi. Davlat hokimiyatini mustahkamlash maqsadida urug' va qavm boshliqlari bo'lgan amaldorlarni quyi tabaqalardan chiqqan yosh va g'ayratli kishilar bilan almashtiradi. O'z manfaatini davlat va xalq



Carovga tikilgan hayot

Amir Nasrulloh Xiva va Qo'qon xonliklarini Buxoro atrofida birlashtirishga uringan siyosatchi sifatida ham Turkiston tarixida muhim o'rin tutadi. Ilgari Qo'qon xonlari tomonidan tortib olingan Bashog'ir, Xo'jand, O'ratepa, Toshkent, Jizzax va Zominni 1840–1842-yillar o'rtasida Buxoro amirligiga qaytarib, mamlakatning hududiy yaxlitligini tiklaydi.

Xiva xonligi bilan Buxoro amirligi o'rtasidagi ziddiyatlar bu davrda ancha keskinlashgan edi. Xiva xoni Marv turkmanlarini Buxoro amirligi yerlariga hujum qilishga doim rag'batlantirib turgan. O'z navbatida, har ikki o'zbek davlati Marvni o'z hududiga kiritish niyatida bo'lgan. Oxir-oqibat bu kurashda Nasrullohxon g'olib chiqib, 1843-yili Marvni bobokaloni Amir Shohmurod davrida bo'lgani singari, Buxoro amirligining tarkibiy qismiga aylantiradi. Biroq uning Xiva xonligini Buxoro davlatiga birlashtirib, mintaqada yagona o'zbek davlatini tuzish g'oyalari amalga oshmagan.

Aslida, Nasrullohxonning 1842-yili Qo'qonga yurish qilib, xonlik hududini egallashdan ko'zlangan asosiy maqsadi ham mamlakatning hududiy yaxlitligini tiklash edi. Biroq Nasrullohxon tomonidan Qo'qonga Ibrohim parvonachi mang'itning noib qilib qoldirilishi salbiy oqibatlariga olib kelgan. Noib mahalliy aholiga zulm o'tkazib, soliqlarni ko'paytiradi. Natijada tez orada Qo'qon qo'ldan ketadi.

Nasrullohxon qo'shini 20 yilda olib borgan 32 ta harbiy yurishidan so'ng 1856-yilda Shahrisabzni uzil-kesil egallagan. Shahrisabz markaziy hokimiyatga bo'ysungach, u sulh ramzi sifatida mahalliy hukmdor – Iskandar Vallomaning singlisi Kenagasxonimga uylangan. Afsuski, ezgu maqsadni ko'zlagan Amirning hayotiga aynan Kenagasxonim zomin bo'ladi. Uning qasosi qurboniga aylangan Amir 1860-yil 21-sentabrda Buxoroda 54 yoshida vafot etadi.

manfaatidan ustun qo'ygan saroy amaldorlari va akobirlarini egallab turgan lavozimidan chetlashtiradi, ularga nisbatan qat'iy choralar ko'radi.

Ayniqsa, uning 1837-yildagi islohotlari diqqatga sazovordir. Garchand, ayrim muarrixlar Nasrullohxonni yaqinlashib kelayotgan katta xavfni his qilmaslikda ayblasalar-da, bir haqiqatni bilittifoq tasdiqlashadi. Nasrullohxon harbiy sohada islohotlar o'tkazib, o'z qo'shinining jangovar holatini yaxshilaydi. Har biri 800 kishidan iborat 50 ta sarbozlar buluklari va 250 kishilik to'pchilar guruhi tashkil qilingan. Xorijdan harbiy mutaxassislar jalb etiladi. Masalan, Erondan 1834-yili kelgan Abdusamad Tabriziy ovro'pacha usuldagi nizomiy askarga tartib bergan va maxsus to'pchilar qo'shinini tuzgan. Qo'shinda qizil kurtka, oq shalvar va qalpoqdan iborat maxsus harbiy kiyim joriy qilingan. Buxoroda to'p va zambaraklar tayyorlash uchun alohida to'pxona quriladi. Muntazam piyoda qo'shin soni 40 ming sarbozdan iborat bo'lib, amir sarbozlariga eron, turk zobitlaridan tashqari, rus ofitserlari ham ta'lim bergan.

Bobomeros hungodkorlik

Amir Nasrulloh amirlikka qarashli shahar va qishloqlarda qurilish va obodonlashtirish ishlarini olib borishga ham hukmdorlik faoliyatining ajralmas qismi sifatida qaragan. Birgina Buxoroning o'zida o'nlab madrasalar qurilgan. 1855-yilda katta bobosi Amir Doniyolbiy davrida boshlangan va bobosi Shohmurod hamda otasi Amir Haydar hukmronlik qilgan yillarda qurilishi davom ettirilgan Xalifa Xudoydod me'moriy majmuasi muvaffaqiyat bilan yakuniga yetkazilgan.


Yana bir muhim jihat, Amir Nasrullohxon saroyida ko'plab tarixchi va shoirlar yashab, ijod qilgan. Ular orasida Muhammad Mir Olim Buxoriy, Muhammad Yoqub Buxoriy ibn Ahmad Doniyol, Ahmad Donish, Mirzo Shams Buxoriy kabi ko'plab tarixiy asarlar mualliflari bor. Nasrullohxon saroyida muayyan muddat iste'dodli shoir Junaydullo Hoziq ham yashab, ijod etgan.

Xulosa o'rnida

Mustabid tuzum davrida Amir Nasrullohxonning shaxsiyati kam-sitilib, unga «qassob amir», «Botir qassob» kabi mudhish tamg'alar bosilgandi. Achinarlisi, bunday etni junjiktiradigan jumlar, asossiz ayblovlar, haqoratimiz so'zlar 2010-yilga qadar maktab darsliklarida ham bor edi.

Biz bugungi kunda Vatanimiz tarixida muayyan rol o'ynagan va o'zidan o'chmas iz qoldirgan barcha ajdodlarimiz, xususan, davlat arboblari va harbiy sarkardalar faoliyatini butun ziddiyatlari va murakkab tomonlari bilan chuqur o'rganishimiz, ularning har biriga baho berayotganda, ajdodlarimiz shaxsiyati va faoliyatini zamonasozlik qilmasdan, ularga asossiz ayb qo'ymasdan, ular yashab o'tgan tarixiy sharoit va vaziyatdan kelib chiqqan holda, xolis baholasak, ayni muddao bo'ladi.

Temir QURBON.



MA'RIFAT BO'STONI

ENG GO'ZAL MANZARA

Kino tarixidagi eng mashhur komik aktyor Charli Chaplin shunday hikoya qiladi:

«Bolaligimda otam bilan sirk ko'rgani borgandik. Chipta olish maqsadida navbatga turdik. Oldimizda er-xotin va ularning olti bolasi turardi. Bolalarning kiyimlari eskirib ketgan, lekin ozoda edi. Ular juda xursand holda sirk haqida gaplashishardi. Navbatlari kelgach, ota oyna yoniga borib, chipta narxini so'radi. Narxni eshitgach, biroz tisarilib xotiniga pichirlab nimadir dedi. Uning yuzida bezovtalik alomatlari yaqqol sezilib turardi.

Shu payt otam cho'ntagidan 20 dollarni olib, yerga otdi va egilib, uni oldi-da, pulni haligi kishining kaftiga qo'ydi va «pulingiz tushib ketdi», dedi. Haligi odam ko'zlarida yosh bilan,



«rahmat, janob», dedi. Ular tomosha zaliga kirib ketganidan so'ng otam qo'limdan tortdi va biz tashqariga chiqib ketdik. Chunki otamning o'sha odamga bergan 20 dollaridan boshqa puli yo'q edi. O'sha kundan buyon otam bilan faxrlanaman.

Butun hayotimdagi eng go'zal manzara mana shu bo'lgandi».



QARILIKDAN

Keksa bir odam kasal bo'lib qoldi. Qo'ni-qo'shni zudlik bilan tabib chaqirdi. Tabib bemorning tomir urishini tekshirdi, isitmasini o'lchadi, yurak urishini eshitdi. Birozdan so'ng bemordan: «Nima bo'ldi?» deb so'radi.

— Oh, so'ramang tabib! Xotiram pasaygan.

— Aslida tashvishlanadigan hech gap yo'q, qarilikdan, — dedi tabib.

— Ko'zim oldi qorong'ulashadi, ba'zan ko'rmay qolaman.

— U ham hech narsa emas, qarilikdan.

— Oh, tabib, yegan taomim hazm bo'lmayapti.

— Oshqozon kuchsizligi ham qarilikdan.

— Ba'zan nafasim hapriqadi. Bu ham qarilikdanmi?

— Ha, bu ham qarilikdan! Inson qariganida yuz xil dardi, shikoyati bo'ladi.

Bemorning jahli chiqdi:

— Qanaqa tabibsan? Boshqa gaping yo'qmi? Senga faqat shuni o'rgatishdimi?

Alloh har bir dardga darmon bergan, shuni bilmaysanmi? Hayf senga.

Tabib ohista bir tarzda javob berdi:

— Ey yoshi o'tgan, ishi bitgan inson, bu jahldorlik bilan qahr g'azab ham qarilikdandir...

Jaloliddin Rumiyning «Masnaviy»sidan.

NOMUS BOYLIKDAN AFZAL

O'tgan zamonda Karim ismli bir kishining shahardan tashqarida bir parcha yeri bor edi. Karim har yili shu yeriga ekin ekib, undan olgan hosilga qanoat qilib, bola-chaqasi bilan umr kechirardi. Bahor payti yer haydab turganda bir o'g'ri kelib, uning ter to'kib ishlayotganiga qarab turdi. Yaqin borib, salomlashdi-da, dedi:

— Siz bir kambag'al kishiga o'xshaysiz. Kiygan kiyimingiz bundan dalolat berib turibdi. Oyoqyalang ishlayapsiz, chorig'ingiz ham bo'lmasa kerak. Yeringizdan chiqqan hosil bilan oilangizni ta'minlay olmaysiz. Bunga ishonchim komil. Keling, men bilan birga o'g'rilik qiling, pulingiz ko'payadi.

Karim uning taklifiga dedi:

— Yo'q, men eng past, yaramas odam bo'lishni istamayman. Men nopok yo'llar bilan pul topishdan hazar qilaman. Halol mehnat qilib, pok yashashni istayman. Ko'rdingizmi, men peshona teri to'kib, shu halol mehnatim tufayli qalbim rohatlanib, farog'atda umr kechiraman. Sizning ham o'g'rilik kabi yaramas ishdan tavba qilishingizni so'rayman. Bu kasbdan or qiling.

Bayt:

Berma ozor kishiga, qilma o'g'rilik zinhor,
O'g'ri doim chekadir ranj-u uqubat bisyor.



«TUTINGAN» O'G'IL

Amal kursisida o'tirganingda kim eng ko'p tovoningni yalasa, kursidan tushganingda o'sha birinchi bo'lib sendan yuz o'giradi, deganlari qanchalik to'g'ri ekaniga o'zim ishonch hosil qildim.

Bir qadrdonim bor edi. Kunora qo'ng'iroq qilib, haftada kelib turar, shifoxonaga tushib qolsam, «ovora bo'lmang», deyishimga qaramay hammadan avval yetib borar, ta'til paytida O'zbekistonning qaysi burchagida dam olmay, topib borar, «bir cho'qimgina» osh qilmasa, ko'ngli joyiga tushmas edi... Bunisi ham mayli, ikki gapning birida «men sizni otam deganman, siz mening otamsiz», deb, Xudoni o'rta qasam ichardi...

Mansabim jinday o'zgargan edi, «bolam»ni yo'qotib qo'ydim. Surishtirsam, boshqa ota izlab yurgan ekan...

O'tkir HOSHIMOV,
O'zbekiston xalq yozuvchisi.



UCHTA BANAN

U ishdan qaytishda uch nafar farzandiga goh uch dona banan, goh uch dona shokolad xarid qiladi. Ko'proq banan, albatta. Bundan bolalar benihoya xursand bo'lib, bananni olishlari bilan uyni boshlariga ko'tarishadi.

— Dadam banan olib keldilar, — deb qiyqirishadi. So'ng qo'llaridagi bananlarni po'stidan ayirib, bir-birlariga maqtanib yeya boshlaydilar.

Bobo bilan buvi bir-birlariga sezdirmasdan qarab, astagina tamshanib qo'yadilar. Ikkalasi ham beixtiyor «men bolamga, bolam bolasiga», degan maqolni eslaydi...

Nusrat RAHMAT.

ГОРЯЧО ЛЮБИТЕ СВОЕ ДЕЛО!

Беседовать с членом Совета ветеранов МВД Республики Узбекистан подполковником в отставке Шухратом Джамаловичем Камаловым было интересно и познавательно. Ветеран органов внутренних дел около сорока лет отдал делу укрепления мира и спокойствия в родной стране, имеет за плечами богатый профессиональный опыт, которым щедро делится с молодым поколением правоохранителей.

1 июня герою очерка исполняется 65 лет. В связи с этим от всей души и чистого сердца поздравляем его со знаменательным событием, желаем крепкого здоровья, семейного благополучия, успехов на благо нашей любимой Родины!

– Образование имею техническое, – рассказывает Шухрат Джамалович. – В свое время окончил Ташкентский университет информационных технологий. После сложилось так, что начал службу в Республиканском объединении «Охрана» МВД Узбекистана (ныне Главное управление охраны Национальной гвардии Республики Узбекистан). Там, работая со специальной аппаратурой и техникой, усовершенствовал полученные в уни-

верситете знания. Вспоминаю своего наставника – подполковника Григория Борисовича Портнова. Это был замечательный, чуткий, внимательный человек. Он никогда не отказывал в помощи, всегда был готов дать дельный совет, несмотря на то, что был загружен делами.

...Годами позже Ш. Камалов перешел на работу в Управление внутренних дел на транспорте МВД Республики Узбекистан (ныне Департамент обеспечения безопасности на объектах транспорта и туризма), где работал на ответственных должностях. В 2013 году Шухрат Джамалович вышел на заслуженный отдых. Но что такое отдых для человека, привыкшего всю жизнь трудиться? Камалов



включился в активную общественную деятельность в составе Совета ветеранов МВД Узбекистана.

– Оказываем всемерную помощь представителям старшего поколения, отдавшим большую часть

жизни службе в органах внутренних дел, не забывая и тех, у кого проблемы со здоровьем, делаем все возможное, чтобы пенсионеры были окружены заботой и вниманием, – говорит Ш. Камалов. – Эти само-

отверженные люди так много сделали, чтобы в стране царили мир и спокойствие. Каждый из них заслуживает глубокого уважения и искренней благодарности.

Шухрат Джамалович живет интересной и насыщенной жизнью. Вместе с супругой, Ёкут опа, они воспитали дочь Зумрад, которая работает журналистом, и сына Дилшоода. Дети подарили родителям пятерых внуков, в которых они души не чают. В свободное от основных дел время Шухрат ака трудится на небольшом участке земли, где выращивает овощи и газную зелень к семейному столу. А еще он много читает книг из серии исторического жанра.

– Молодым правоохранителям, недавно вставшим в строй органов внутренних дел, хочу пожелать как можно больше работать над собой, – подчеркивает Ш. Камалов. – Не жалеете времени на самообразование. Упорно овладейте профессией и горячо любите свое дело!

Георгий ПЕТРОСЯН,
корреспондент
«На посту».

✓ Династии

ПРЕЕМСТВЕННОСТЬ ПОКОЛЕНИЙ



Династии в органах внутренних дел – не редкость. Дети сотрудников ОВД, осознанно следуя примеру родителей, чаще всего идут по правоохранительной стезе.

готовностью прийти на помощь снискал уважение жителей обслуживаемых участков, коллег и вышел на заслуженный отдых в звании капитана.

Нас в семье шесть сыновей, старший брат, Алимардон, тоже продолжил дело отца. Он работал в УВД Ферганской области, дослужился до звания майора. Ахрорбек – хирург-кардиолог, Асрор и Содикжон – предприниматели, а самый младший брат, Азизбек, пока еще студент.

Чем важны династии сотрудников ОВД? Наверное, один из главных плюсов – наставничество. Родители делятся опытом с детьми, дают им верные советы. Важно, когда поколения объединяет общее дело, тем более, если речь идет о такой профессии, как сотрудник органов правопорядка.

Борис КЛЕЙМАН,
корреспондент «На посту».

Андижанская область.

Подполковник Мухиддин Рахманов не новичок в органах внутренних дел. Окончив Академию МВД, он проработал на различных должностях. В настоящее время является оперуполномоченным по особо важным делам Управления уголовного розыска Службы уголовного розыска УВД Андижанской области.

– Когда пришло время выбирать профессию, у меня не было сомнений, – рассказывает подполковник М. Рахманов. – Ведь мой отец, Алижон Рахманов, в течение многих лет служил в подразделениях ОВД в Ферганской области, накопил огромный опыт. Преданностью делу укрепления правопорядка,



Постоянное общение с людьми, работа по первому звонку, умение сопереживать и не быть равнодушным к чужим проблемам – так зарекомендовал себя старший инспектор профилактики подполковник Хасан Раджабов.

В рядах органов внутренних дел Хасан Раджабов служит более 20 лет. Начиная с должности инспектора по делам несовершеннолетних в Самаркандском РОВД. В 2005 году был переведен в службу профилактики.

Нынешняя территория ответственности подполковника Х. Раджабова – горная махалля Тепакул Нурабадского района.

Село с населением свыше 3200 человек. Кому-то может показаться, что работать здесь легко: преступлений почти не совершается, а если что-то происходит, вычислить нарушителя не трудно – все друг друга знают. Но это не так. К примеру, в минувшем году угнали стадо овец – свыше 120 голов. Хозяин стада обратился с заявлени-

ем. В сельской местности нет камер видеонаблюдения. Чтобы раскрыть преступление, выходили на рынок, ведь наверняка овец угнали с целью продажи. После нескольких дней злоумышленников задержали. Ими оказались парни из Чиракчинского района соседней Кашкаринской области.

– Служба инспектора профилактики весьма ответственна, – подчеркивает наш собеседник. – Селяне судят о деятельности органов внутренних дел прежде всего по нашей работе. А это, согласитесь, многого стоит, – подчеркивает подполковник Хасан Раджабов.

Замира БАЛТАЕВА,
корреспондент «На посту».

Самаркандская область.



Salomatlik saboqlari

JIGAR – ENG MUHIM HIMYOYACHI

Jigarda muammo bo'lmisligi uchun nimalarga e'tibor qaratish kerak? Bunda shaxsiy gigiyenaga qat'iy rioya qilish, kun tartibini to'g'ri tashkil etish, o'z vaqtida dam olish, meva va sabzavotlarni ko'proq iste'mol qilish, yog'li ozuqalardan tiyilish va soha mutaxassislariga quloq tutish joiz. IIV Markaziy gospitali 1-terapiya bo'linmasi boshlig'i, shifokor-terapevt, podpolkovnik Gulchehra Qosimovaning tavsiyalari aynan jigar kasalliklari va uning oldini olish haqida.

Jigar inson organizmida ahamiyatli funksiyalarni bajaradi. Oshqozon-ichak yo'llariga tushadigan oziq-ovqat komponentlari qonga so'riladi va birinchi galda jigarga yetkaziladi. Jigarda ularning o'zgarish jarayonlari yuzaga kelib, hayot uchun zarur bo'lgan moddalar hosil bo'ladi. Ushbu a'zo barcha ko'rinishdagi moddalar almashinuvida – oqsillar, yog'lar, uglevodlar almashinuvida ishtirok etadi. Faqat jigarda organizm uchun zarur bo'lgan albumin oqsili va ko'pgina qon ivish omillari yuzaga keladi, organizm uchun energiya manbai hisoblangan glikogen hosil bo'ladi va to'planadi.

Shuningdek, jigar vitamin va mikroelementlar almashinuvida ishtirok etadi. Uning muhim vazifasi organizm za-

harlanishining oldini olishdir. Ovqat hazm qilish va hayotiy faoliyat jarayonlarida organizm hosil bo'ladigan moddalar, dori preparatlari jigarga kelib tushadi. Ulardan ba'zilar organizm uchun zaharli bo'lishi mumkin. Jigarda bu moddalar kam toksik mahsulotlarga aylanadi. Gormonlar va boshqa biologik faol moddalar o'z faolligini yo'qotadi.

Aksariyat jigar kasalliklari jiddiy asoratlar yuzaga kelguniga qadar hech bir alomatsiz kechadi. Og'riqni va sariq kasalligini qo'zg'atishi mumkin bo'lgan jigar to'qimalarining og'ir shikastlanishi davolash jarayoni murakkab, uzoq muddatli va kam samarali bo'lganda sodir bo'ladi. Biroq barvaqt diagnostika jigar kasalligini muammoni tez va nisbatan oson, eng

muhimi, butunlay hal qilish mumkin bo'lgan bosqichda aniqlay oladi.

- **Jigar kasalliklari**
- **tashxisi doimiy charchoq va bemajollik,**
- **ishtahaning kamayishi va vazn yo'qotilishi,**
- **o'ng qovurg'a ostida og'riq va og'irlik hissi, teri rangi va ko'zning oq pardasi sarg'ayishi, najas va peshob rangining o'zgarishi, og'izda taxirlik va yoqimsiz ta'm hissi, ko'ngil aynishi, teri toshmalari kabi alomatlar kuzatilganda qo'yiladi.**

Jigar kasalliklari yuzaga kelishiga spirtli ichimliklar, qovurilgan va yog'li taomlar iste'moli, semirish, stress, oqsil, mikroelement va vitaminlar yetishmasligi, qabul qilingan dori vositalari asorati, virusli infeksiyalar, irsiy kasalliklar, endokrin va metabolik buzilishlar kabi omillar sabab bo'lishi mumkin.

Yog'li gepatoz yoki jigarni yog' bosishi asosan noto'g'ri ovqatlanish, kam harakat tufayli yuzaga keladi, shuningdek, qandli diabet, ayrim gormonal almashinuvlari buzilishi sababli ham kelib chiqishi va keyinchalik virusli gepatit, jigar sirroziga olib kelishi mumkin.

Jigar o'zini o'zi qayta tiklaydigan a'zo hisoblanadi. Shu bois yog'li gepatoz kasalligini davolash uchun, eng avvalo, uni keltirib chiqargan sabablarni bartaraf etish, sog'lom ovqatlanish tartibiga amal qilish, qovurilgan, achchiq va sho'r taomlar iste'mol qilmaslik, tarkibida uglevod, vitaminlar, kletchatka, pektiniga boy mahsulotlar, yog'siz go'sht, qaynatilgan va bug'da pishirilgan yeguliklarni ratsiyonga kiritish tavsiya etiladi.

■ **Virusli gepatit o'tkir yuqumli kasallik bo'lib, bu jarayonda viruslar jigarni zararlaydi. Ushbu xastalikning A, B, C, D va E turlari mavjud bo'lib, eng keng tarqalgani A gepatiti hisoblanadi. Virusli gepatit jigar hujayralarining zararlanishi, teri va shilliq qavatlarining sarg'ayishi, ba'zi hollarda jigar va taloqning kattalashishi bilan ifodalanadi.**

Hozirda kasallikning oldini olish maqsadida A va B gepatit turlariga qarshi vaktsinatsiya amalga oshiriladi. Emlashdan so'ng immunitet hosil bo'lib, uning kuchi qariyb 15–20 yil-

gacha yetadi va kasallikning tarqalish xavfi kamayadi.

Ushbu xastalik o'z vaqtida aniqlanganda, bemorni kasalxonaga yotqizish va uning atrofidagi odamlarni ko'rikdan o'tkazish, shaxsiy gigiyena qoidalariga qat'iy amal qilish, bemor ishlatgan idish-tovoq va buyumlarni dezinfeksiya qilish tavsiya etiladi.

Jigar kasalliklarini davolash shifokor ko'rigi va tavsiyalari asosida olib borilishi shart. Bu jarayonda bemorlar spirtli ichimliklar iste'molini cheklashi, turmush tarzini o'zgartirishi, ya'ni yog'li va achchiq taomlardan, yarim tayyor mahsulotlardan voz kechishi, kun davomida ovqatlanish tartibini rejali yo'lga qo'yishi, organizmni foydali moddalarga boy oziq-ovqatlar, meva-sabzavotlar, vitaminlar (ayniqsa, B guruhi), mikronutrientlar va minerallar (rux, magniy, kaliy) bilan ta'minlashi maqsadga muvofiqdir.

Gulchehra AZIMOVA
yozib oldi.



ЛЕТО: СОХРАНЯЕМ И УКРЕПЛЯЕМ ЗДОРОВЬЕ

Лето – пора отдыха и отпусков. Много свежих фруктов, хочется гулять, купаться и загорать. Солнце поднимает настроение, помогает выработке витамина D. Психологический настрой у большинства людей летом чаще всего лучше, чем зимой и осенью: когда за окном солнечно и тепло, нам проще справиться со стрессом и пережить негативные события.

Казалось бы, какие напасти могут нас ждать. Но и летом нужно быть начеку со своим здоровьем.

Из-за жары могут страдать люди с сердечно-сосудистыми заболеваниями. Во время жары таким людям нужно избегать физической активности, не злоупотреблять жирной пищей и помнить о достаточном потреблении жидкости.

Солнечные ожоги могут быть опасны. Не стоит часами загорать на пляже. Солнце полезно для орга-

низма, но в умеренных количествах. Если кожа сильно покраснела и к ней больно прикасаться, появились отеки или стало знобить, значит у вас солнечный ожог. Место ожога нужно срочно охладить, это можно сделать при помощи компресса с чистой водой. После охлаждения следует увлажнить кожу, чтобы она не потрескалась, обычно для этого используют сметану или кефир.

Длительное нахождение на солнце опасно солнечными ударами.



Старайтесь не загорать с 11 до 15 часов дня, когда солнце в зените. Чаще находите в тени, старайтесь носить хлопчатобумажную легкую одежду, прикрывающую тело.

Летом велик риск подхватить кишечную инфекцию, ведь из-за жары в продуктах быстро распространяются болезнетворные бактерии. Чтобы избежать этой неприятной «болячки», нужно внимательно следить за сроком годности продуктов, хранить их в специально отведенных

для этого местах. Фрукты и овощи нужно тщательно промывать перед употреблением проточной водой.

Однако не стоит из-за болезней пугаться лета и запирается дома. Это лучшая пора для того, чтобы привести здоровье в порядок. Если есть возможность, можно съездить на море, к озеру или реке. Нужно есть много фруктов, быть на свежем воздухе. За лето организм накопит нужные витамины и микроэлементы.



Это интересно

ОТ ИСТОРИИ – К СОВРЕМЕННОСТИ

Каждый участник дорожного движения должен знать и, конечно же, соблюдать ПДД. При этом далеко не всем известна их история, которая является довольно интересной.



Создание правил дорожного движения восходит к античным временам. По мере роста крупных городов, в которых интенсивно использовался гужевой транспорт, люди пришли к необходимости упорядочивания его движения.

Первые попытки были предприняты еще в Древнем Риме Гаем Юлием Цезарем. По его указу в 50-х годах до н. э. на некоторых улицах города было введено одностороннее движение. С восхода солнца и до конца «рабочего дня» (примерно за два часа до его захода), был запрещен проезд частных повозок, колесниц и экипажей. Приезжие были обязаны оставлять свой транспорт за чертой города и передвигаться по Риму пешком, либо наняв паланкин (кры-

тые носилки как средство передвижения зажиточных лиц). На дорогах империи было принято левостороннее движение, позволявшее



назрела острая необходимость формирования единого свода норм, регулирующих все аспекты дорожного движения.

Ключевые этапы в истории создания современных правил дорожного движения связаны с принятием:

первых международных правил в Париже в 1909 г. Считается, что именно с этого момента начинается современная история ПДД; единой европейской системы дорожных знаков, основанной на символах (Женева, 1931 г.). Эта система используется сегодня во всем мире; единой международной системы ПДД (Женева, 1949 г.) – все страны мира разрабатывают свои внутригосударственные правила дорожного движения в соответствии с данной с ней;

Конвенции о дорожном движении (Вена, 8 ноября 1968 г., Конференция ООН по дорожному движению), которая была подписана представителями 68 стран мира.

Развитие технологий, рост количества транспортных средств и скорости автомобилей требуют постоянного совершенствования и дополнения действующих правил. Поэтому вполне естественно, что в ПДД достаточно часто вносятся изменения.

История ПДД, которые известны нам сейчас, началась в эпоху автомобилей. Увеличение их количества с конца XIX века значительно осложнило ситуацию на дорогах. Довольно быстро

назрела острая необходимость формирования единого свода норм, регулирующих все аспекты дорожного движения.

Ключевые этапы в истории создания современных правил дорожного движения связаны с принятием:

первых международных правил в Париже в 1909 г. Считается, что именно с этого момента начинается современная история ПДД; единой европейской системы дорожных знаков, основанной на символах (Женева, 1931 г.). Эта система используется сегодня во всем мире;

единой международной системы ПДД (Женева, 1949 г.) – все страны мира разрабатывают свои внутригосударственные правила дорожного движения в соответствии с данной с ней;

Конвенции о дорожном движении (Вена, 8 ноября 1968 г., Конференция ООН по дорожному движению), которая была подписана представителями 68 стран мира.

Развитие технологий, рост количества транспортных средств и скорости автомобилей требуют постоянного совершенствования и дополнения действующих правил. Поэтому вполне естественно, что в ПДД достаточно часто вносятся изменения.



ГОРОСКОП НА НЕДЕЛЮ

(с 5 по 11 июня)



Овен. Лучше побережь силы, правильно питаться, избегать стрессового общения. Пользу принесут встречи и переговоры с деловыми партнерами. Рутинная и домашние хлопоты отнимут слишком много времени – отложите их ненадолго. Можно запланировать поездку и отправиться в небольшое путешествие. Вероятно поступление денег.



Телец. Вы слишком придирчивы, склонны придавать большое значение мелочам. Чтобы преуспеть в деле, надо сохранять душевное равновесие. Будет нелегко, но вы сумеете найти общий язык и обо всем договориться с окружающими. Порадуют недорогие покупки, а вот от крупных трат лучше воздержаться.



Близнецы. Проявляйте активность, энергичность, это принесет хорошие плоды. Получится одолеть проблемы, добиться внушительного результата за очень короткий срок. Утренняя зарядка, физические упражнения помогут сохранять энергичность. Свободное время посвятите творчеству, хобби.



Рак. Настройтесь на то, чтобы расслабиться и плыть по течению. Удачно сложится поездка. Полезно сменить обстановку, познакомиться с кем-нибудь интересным. С тратами лучше повременить. Вероятны денежные поступления, которых долго ждали.



Лев. Представители знака почувствуют прилив энергии. Запала хватит, чтобы перевыполнить план. Есть шанс подписать выгодный контракт или заключить сделку. Дела, за которые вы возьметесь, могут оказаться очень прибыльными. Полезно налаживать деловые связи, встречаться с потенциальными партнерами.



Дева. Вам нужно быть активнее, закончить незавершенные дела. Появятся новые заботы и задачи. Почувствуете себя уверенно. Прямолинейность привлечет союзников, которые окажут вам всестороннюю поддержку. Не исключены выгодные сделки. Может представиться шанс реализовать давнюю мечту.



Весы. Ждут яркие эмоции, как положительные, так и отрицательные. Легко начинать ссоры. Нужно хорошо подумать, прежде чем критиковать кого-либо. Постарайтесь контролировать эмоции и тщательнее подбирать слова. Не болтайте с людьми попусту. Посвятите свободное время домашним делам, отдохните.



Скорпион. За скучную монотонную работу лучше не браться, зря потратите силы и время. Не исключены удачные приобретения, получение прибыли, премии. Если ситуация подталкивает идти на риск, не спешите, сначала все взвесьте. Избегайте тяжелого физического труда, повышен риск травм от перенапряжения.



Стрелец. Почувствуете, что вам не хватает времени. Придется пожертвовать кое-какими планами. Зато в других делах ждет небывалый успех и существенное продвижение вперед. Вы легки в общении, приятный собеседник. Можно заняться финансовыми вопросами – большие шансы получить крупную прибыль.



Козерог. Вашего внимания потребуют домашние дела и бытовые вопросы. Вы можете почувствовать себя обновленным и более успешным. При этом надо будет рисковать и экспериментировать, это просто необходимо для успешного решения вопросов. Отбросьте сомнения и страхи. Действуйте уверенно – останетесь довольными итогами.



Водолей. Неделя относительно спокойная. Придется перебарывать лень, чтобы выполнить то, что задумали. Из приятного возможно успехи в творчестве, знакомства. Хорошо работает интуиция, можно строить планы на ближайшее будущее. Будьте внимательны с деньгами, считайте сдачу и проверяйте чеки.



Рыбы. Не слишком увлекайтесь помощью другим. Внимания требует здоровье. При выполнении сложной работы возможен нервный срыв. Чаще делайте перерывы и по возможности выберите легкий труд. Вечером полезны прогулки на свежем воздухе.

1-IYUN – XALQARO BOLALARNI HIMOYA QILISH KUNI**TOSHKENT SHAHRI****IIVga qarashli 1-sonli maktabgacha ta'lim tashkiloti**

Inson umrining ko'rki va mazmuni farzanddir. Yurtimizning qaysi bir go'shasiga bormang, bolalarga ko'rsatilayotgan g'amxo'rliklarning guvohi bo'lasiz. Jajji va qalbi beg'ubor bolajonlarni ardoqlash, sog'lom o'stirish, turli xurujlardan asrash, ularga ta'lim-tarbiya berish kattalarning muqaddas burchi hisoblanadi.

Ichki ishlar vazirligining Toshkent shahridagi va hududlarda faoliyat yuritayotgan maktabgacha ta'lim tashkilotlari yurtimiz tinchligi, osoyishtaligi yo'lida fidoyilik bilan xizmat qilayotgan xodimlarning



farzandlariga ta'lim-tarbiya berish bilan birga ularning ko'ngillariga xotirjamlik, xizmat majburiyatlarini a'lo darajada bajarishlariga hissa qo'shayotir.

NAVOIY VILOYATI**SIRDARYO VILOYATI****NAMANGAN VILOYATI**

MUASSIS:
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
ICHKI ISHLAR VAZIRLIGI

Bosh muharrir –

polkovnik
Bernora **SADIKOVA**

Bosh muharrir o'rinbosarlari –

mayor Azizjon **FAYZIYEV**
kapitan Aziza **BOHODIROVA**

Mas'ul kotiblar –

Jahongir **SHAROFBOYEV**,
Erkin **SATTOROV**

Navbatchilar –

Sherzod **ABDUSAMADOV**
Radik **TUMPAROV**

Sahifalovchilar –

Zokir **BOLTAYEV**
Ilhom **JUMANOV**
Akbar **BOLTAYEV**

Fotomuxbirlar –

Abu **KENJAYEV**
Ikrom **HASANOV**

TELEFONLAR:

71-231-33-88;

Faks: 71-231-40-05.

Obuna masalalari bo'yicha:

71-231-38-74;

97-420-89-24

Web-site: www.postda.uz

E-mail: info@postda.uz

ISSN 2010-5355



Tahririyat hisob raqami
h/r 23402000300100001010.

Bank kodi 00014.

O'zbekiston Respublikasi
Iqtisodiyot va moliya
vazirligi g'aznachiligi.

Shaxsiy h/v
470010860262877031101179001
STIR 200637499.

Tahririyatga kelgan qo'l-
yozma va suratlar egasiga
qaytarilmaydi.

Nashrimizdan ko'chirib bosil-
ganda manba ko'rsatilishi shart.
Gazeta tahririyat kompyuter
markazida terildi va sahifalandi.

«O'zbekiston» nashriyat-matbaa
ijodiy uyi bosmaxonasida
chop etildi.
Korxonada manzili:
Alisher Navoiy ko'chasi 30-uy.

Gazeta O'zbekiston Respublikasi
Prezidenti Administratsiyasi
huzuridagi Axborot va ommaviy
kommunikatsiyalar agentligi
tomonidan 2020-yil 13-yanvarda
0120-raqam bilan ro'yxatga
olingan.

Buyurtma №V-5500.
Bosilish – ofset usulida.
Bichimi – A3. Hajmi – 6 bosma
taboq. 50942 nusxada chop etildi.
Obuna raqamlari:
Yakka tartibda – 180.
Tashkilotlar uchun – 366.
Bosishga topshirish vaqti – 22.00.
Bosishga topshirildi – 21.00.
Sotuvda kelishilgan narxda.

MANZILIMIZ:

100070, Toshkent shahri,
Shota Rustaveli 1-berk
ko'chasi 9-uy.

